

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

Farg'ona davlat universiteti  
«Psixologiya» yo'nalishi 12.413 - guruh talabasi  
Madazimova Xurshidaning

«Boshlang'ich sinf o'quvchisi kreativligini  
rivojlantirishga differentsial yondashuv»

**BITIRUV**  
**MALAKAVIY ISHI**  
**mavzusidagi**

Ilmiy rahbar: p.f.d., professor B.Umarov

FARG'ONA - 2016

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2016 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ yig'lishda muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ M.Isaqova

Taqrizchi:

Farg'ona VXTXQTMOI

pedagogika, psixologiya va ta'lif  
menejmenti kafedrasining mudiri

p.f.n.,

dotsent

M.Yu.Atadjanov

## Mundarija

Kirish .....	3
I-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchisi kreativligini rivojlantirishda differentsial yondoshuvning nazariy psixologik tahlili .....	8
§ 1.1. Kichik mакtab yoshi davri haqida O'zbekiston va chet el psixolog olimlar qarashlarining nazariy tahlili .....	8
§ 1.2. Shaxs kreativligi bo'yicha nazariy manbalar tahlili .....	47
§ 1.3. Boshlang'ich ta'limda differentsial yondoshuvning nazariy asoslari .	57
I-bob bo'yicha xulosa .....	63
II-bob. boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativligini rivojlantirishda differentsial yondoshuvni empirik tadqiq etish .....	65
§ 2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuri va kreativligini eksperimental tadqiq etish .....	66
§ 2.2 Boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativligini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili .....	67
§ 2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuri va kreativligini rivojlantirishda differentsial yondoshuvni o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili .....	70
II-bob bo'yicha xulosa .....	73
Xulosa .....	75
Tavsiyalar.....	76
Adabiyotlar ro'yxati .....	80
Ilovalar .....	83

## Kirish

Insoniyat tomonidan katta qiziqish bildiriladigan masalalardan biri – voyaga yetayotgan yosh avlodni barkamol qilib shakillantirishdir. Chunki har qanday mamlakatni jahon hamjamiyatida qanday o’rin egallashi, qanday davlat, jamiyat qurishi, avvalambor, o’sib kelayotgan yoshlarni qanday insonlar bo’lib voyaga yetishiga bog’liqdir. Ushbu masala O’zbekistonda ustivor yo’nalishlaridan biri bo’lib xisoblanib Prezidentimiz I.A.Karimov bu haqda: “O’zbekistonning XX1 asrda jahon hamjamiyatidan qanday o’rin egallashi ham — bularning barchabarchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o’sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo’lib voyaga yetishiga bog’liqdir,” – deb aytganlar. [1].

Xammaga ma’lumki mamlakatimizda yoshlar uchun keng imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Prezidentimiz I.Karimov tomonidan “2016 yil – Sog’lom ona va bola yili” deb e’lon qilganlari va mamlakatimizda bunga bag’ishlab “Sog’lom ona va bola yili” Davlat dasturi qabul qilingani bunga yorqin misol bo’la oladi.

Lekin tezlik bilan o’zgarayotgan jamiyat shaxsdan bozor munosabatlari va demokratik o’zgarishlar vujudga kelayotgan sharoitga muvofiq ravishda adaptatsiya qilishni, ushbu o’zgarishlar muallifi bo’lishini, ya’ni innovatsion g’oyalarni ishlab chiqish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy sohani takomillashtirishni taqazo etmoqda. Muhitni tez o’zgarayotganligi yosh inson tomonidan asosiy xayotiy maqsad va vazifalarini belgilab olishni qiyinlashtirmoqda. Shu bilan birgalikda turli axborot, texnik vositalar turli shakllarda ko’p miqdorda mavjud bo’lganligi voyaga yetayotgan avlodni barkamol qilib shakllantirish masalasini murakkablashtirmoqda.

Ushbu muammoni xal etish uchun ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, ularni kreativlikini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlikni rivojlantirish uchun eng qulay yosh davrlardan biri, V.N. Drujinin fikriga ko’ra, bu kichik maktab yoshidir. Ushbu yosh davrda boshlang’ich ta’limda o’quvchilar aqliy qobiliyati, xayoli, fikrlashi, diqqati rivojlanishi faollashadi, ijodiy faoliyatga qobiliyat rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Krutetskiy, E. G’oziyev, G’.Shoumarov, O.

Roziqov, B. Adizov ta'kidlashlaricha, - bu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, histuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanadi.

Ayni paytda respublikamizda 9772 ta umumiyligi o'rta ta'lim muassasasi, 1508 ta kasb-hunar kolleji, 138 ta akademik litsey hamda 68 ta oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatmoqda, ularda tahsil olayotgan o'quvchi va talabalar soni 6 mln. 680 ming nafardan ortig'ini tashkil etadi<sup>1</sup>. Mamlakatimizda 7–11 yoshdagi bolalar boshlang'ich ta'limga qamrab olingan.

Mazkur yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatga moyillik oshishiga qaramay, ayrim muammolar mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari miya xujayralarining notekis rivojlanishi, o'quvchilar o'rtasida jismoniy, psixologik va ijtimoiy farqlar mavjudligi sabali ularning qobiliyati, ist'edodi rivojlanishi darajasi va namoyon bo'lish shakli bilan bir-biri bilan farq qiladi. Bu esa ta'lim muassasasida kreativlikni rivojlantirish masalasini qiyinlashtiradi. Shunday bo'lsada, mazkur yosh davrdan oqilona foydalana olib kreativlik, ijodkorlikka bo'lган motivatsiyani rivojlantirish muhim bo'lib xisoblanadi. Ushbu dolzarb muammoni xal etish uchun bugungi kundagi o'quvchilarni rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik uslublarni tahlil qilib ular orasidan muvofqini tanlash kerak bo'ladi.

Bugungi kunda o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va shaxs sifatini rivojlantirish bo'yicha turli yondoshuvlar ishlab chiqilgan. Ular qatorida individual, differential, an'anaviy va boshqa yondoshuvlarni keltirish mumkin. Keltirilgan yondoshuvlar orasida differential yondoshuvning o'z afzallikkari mavjud bo'lib boshlang'ich ta'limda o'qitish, fanlardan bilim shakllantirish bo'yicha ijobiy natijalar olingan. Lekin, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining kreativligini mazkur yondoshuv yordamida rivojlantirish samaradorligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bu esa ushbu masalaga aniqlik kiritishni taqazo etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilab oldik.

---

<sup>1</sup> Yusupov E. Yoshlar davlat e'tiborida // Huquq va burch. – 2010. – №6. – B.10.

**Tadqiqot maqsadi:** boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlantirishga differentsial yondoshuvni psixologik ta'sirini o'rganish.

Belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **tadqiqot vazifalari** belgilandi:

1. boshlang'ich sinf o'quvchilarning psixologiyasi haqida O'zbekiston va chet el psixolog olimlarining nazariy qarashlarini tahlil qilish;
2. shaxs kreativligi bo'yicha nazariy manbalarni tahlil qilish;
3. differentsial yondoshuvni psixologik ta'sirini nazariy masalalarini o'rganish;
4. boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlantirishga differentsial yondoshuv bo'yicha empirik tadqiqotni amalga oshirish;
5. muammoni o'rganish bo'yicha olingan empirik natijalarni miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
6. ma'lumotlar yuzasidan xulosa ishlab chiqish;
7. boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlantirishga differentsial yondoshuvni tadbiq etish bo'yicha dars texnologiyasini ishlab chiqish;
8. boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlantirish va buning uchun differentsial yondoshuvni tadbiq etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

#### **Tadqiqotning ilmiy farazi:**

- boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligi va tafakkur xususiyatlari o'rtaida o'zaro aloqalar mavjud;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarga nisbatan differentsial yondoshuvni tadbiq qilish ularni kreativligini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- qizlar va o'g'il bolalar kreativligi o'rtaida sifat va miqdor farqlar mavjud.

**Tadqiqot ob'ekti:** Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 6-son va Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 17-son maktablarning 4 sinf 10-12 yoshli 60 nafar o'quvchilari, ulardan 34 tasi qiz bola, 26 tasi o'g'il bola.

**Tadqiqot predmeti:** boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini differentsial yondoshuv orqali rivojlantirish

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi** bo'lib «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi (UzR Prezidentining 2016 yil 9 fevraldag'i PQ-2487-sin qarori), O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonun», Prezident I.A

Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida barkamol avlodni tarbiyalash bo'yicha fikrlari tashkil qiladi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari Az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy; Abu Ali ibn Sino va boshqa allomalarining ijodkorlik, tafakkur, aqlni rivojlantirish bo'yicha qarashlari; kichik maktab yosh davri psixologiyasi, uning psixologik xususiyatlari haqidagi O'zbekiston psixolog olimlar, jumladan E.G'oziyev (yosh davri, dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai-nazar, pozitsiya, o'zligini anglash), M.Davletshin (ijodiy tafakkurni psixodiagnostikasi), Z.Nishonova (o'quvchilar aqliy sifatlari va ularga ta'sir etadigan omillar), F.Akramovalarning dars davomida o'quvchilar orasida intizomning buzilishining ijtimoiy sabablari, shaxs sifatlarini shakllantirish uchun senzitiv davrligi haqidagi ilmiy izlanishlari, nazariy qarashlari xizmat qilgan. Chet el olimlardan L.S. Vigotskiyning psixikani o'rganishga madaniy-tarixiy tamoyil haqidagi; D.A.Leontevning faoliyatli yondoshuv haqidagi; A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Krutetskiy, E. G'oziyev, G'.Shoumarov, O. Roziqov, B. Adizovlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari haqidagi; A. M. Matyushkin, I. S. Averina, G. D. Chistyakovalar o'quvchi shaxsining ijodiy faoliyatini tashkil qilish masalalari haqidagi; N. X. Yunusova ijodiy faoliyat yordamida boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash muammosi haqidagi; Gilford, Torrens, Gettsels va Djekson, Bogoyavlenskaya, Drujinin, Xolodnayalarning kreativlik haqidagi ilmiy qarashlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etgan.

**Tadqiqot metodlari:** kuzatish, eksperiment, suhbat, Gilford va Torrenslarning kreativlikni o'rganishga qaratilgan testlari. Shuningdek matematik statistik metodlardan Spirmenning korrelyatsion statistik analiz metodi, dispersion tahlil.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.** Ilk bor boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlantirishga differentsial yondoshuv tadqiq etilib, ushbu masala yuzasidan psixologik nazariy qarashlar va amaliy psixologiya boyitildi. O'zbekiston va chet el psixolog olimlarning boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlantirish bo'yicha nazariy qarashlari o'rganildi.

Kreativlikni o'rganish bo'yicha metodikalar tarjima qilinib o'zbek sinaluvchilarga moslashtirildi. Boshlang'ich sinf o'quvchi o'g'il bola va qiz bolalar kreativligini rivojlantirishdagi farqlar aniqlandi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy nazariy ahamiyati.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari haqida O'zbekiston va chet el psixolog olimlari nazariyalarini tahlilini amalga oshirildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligining shakllanishi va rivojlantirilishining chet el va O'zbekiston olimlarning nazariyalari o'rganib chiqildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan differential yondoshuvni qo'llash muammo va ijobiy tomonlari o'rganildi. Differential psixologiyaning nazariy bazasiga qo'shimchalar kiritildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini psixodiagnostikas bo'yicha nazariy bilimlar boytildi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.** Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlantirishga differential yondoshuvni amaliy tadbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligi psixodiagnostikasiga oid testlarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlantirish bo'yicha amaliy uslub, mashq, terninglar bazasi, shuningdek boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar bazasi yaratildi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, beshta paragraf, 9ta diagramma, 7ta jadval, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

# **I-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchisi kreativligini rivojlantirishda differentsial yondoshuvning nazariy psixologik tahlili**

## **1.1 §. Kichik mакtab yoshi davri haqida O'zbekiston va chet el psixolog olimlar qarashlarining nazariy tahlili**

Boshlang'ich sinf o'quvchisi psixologiyasini tadqiq etishga bugungi kunda ko'plab nazariyalar mavjud bo'lib ular psixologiya fanining tarmog'i bo'lган yosh davrlar, umr davrlari, ontogenetik psixologiyasi fanlari tomonidan оrganiladi. Inson umrining davrlarga tabaqlash bo'yicha qator nazariyalar mavjud, ular inson shaxsini tadbiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevoiristik nazariyalarni kiritish mumkin. Shuningdek Sharq mutaffakirlaridan Abu Ali ibn Sino ham o'zini yosh davrlari xususiyatlari haqida o'z qarashlarini ifoda etgan. Quyida mazkur nazariyalar va ularning ayrim namoyandalari ifodalagan yosh davrlarini tabaqlash printsiplari yoritilgan.

Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino ham bolalikni quyidagi davrlarga ajratgan:

- 1) podsholik davri 5 yoshgacha
- 2) qullik davri (6-12 yoshgacha)
- 3) O'rtoqlik do'stlik davri deb bolaning keyingi taraqqiyoti davrini nazarda tutgan.

Podsholik davrida bolaning yoshligi uni aytganini kattalar tomonidan bajarilishini, bola o'zini "shirin" qiliqlari, gaplari bilan kattalarni o'ziga rom qilishni e'tiborga oladi. 6-12 yoshgacha bo'lган davrni qullik davri deb beziz aytmagan, albatta Chunki bu davrda bolani xulq atvorga оrgatish, kishilar bilan o'zaro munosabatlarda qoida-qonunlarga bo'ysunish, mehnatga оrgatish, unga nisbatna ijobiy munosabatni shakllantirish, bilim olish o'qish, оrganish, mehnat qilishda qiyinchiliklarga bardosh berish, milliy an'analarimizga sadoqatli bo'lisch, kattalarni, mehnatini qadrlash kabilarga muhabbat ruhida tarbiyalashda bolaga nisbatan e'tibor qaratgan.

Do'stlik davri esa bolaga do'stlarga munosabatda bo'lish ularni xurmat qilish, qilgan ishlarini qadrlash, munosbatalarda samimiy bo'lish lozimligini nazarda tutadi.

Biogenetik nazariyada insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo'lib, ana shu omil bilan o'zaro bog'liqdir. Biogenetik yondoshuvning yorqin vakillari V.Shtern, S.Xoll F.Myuller va EXekkel xisoblanadi. Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Xekkel kashf qilgan. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishning bosh maqsadi biologik determinantlarga (aniqlovchilarga) qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kelib chiqadi. Rivojlanish jarayonining o'zi, dastavval biologik yetilishning universal bosqichi sifatida talqin qilinadi. Ushbu qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi (ontogenez) butun insoniyatning tarixiy rivojining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi. Nemis psixologi V.Shternning fikricha, bola maktabga kirganidan boshlab ibridoiv davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida uning ongi o'rta asr kishilari darajasiga erishadi. S.Xoll "rekapitulyatsiya qonuni"ni (filogenezni qisqacha takrorlashni) psixologik o'sishning bosh qonuni deb hisoblaydi. Uning fikricha, 8—12 yoshlardagi o'sish davri yovvoyilikning oxiri va tsivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolotga tengdir. Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik va sotsiogenetik omillarning qiymatini kansitmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Mazkur yondashishni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin va bu yunalishlar o'z mohiyati, kechishi va maxsuli jihatidan keskin farqlanadi.

Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan boshqa) tarkibiy qismlari: emotsiya, mayl yordamida shaxsning xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Bu nazariyaning yirik namoyandalaridan biri amerikalik psixolog E.Eriksondir. U insonning umrini o'ziga xos betakror xususiyatlarga molik sakkizta davrga ajratadi. Kichik maktab yoshi to'rtinchi davrga to'g'ri keladi. Bu yosh davrda boladagi asosiy o'zgarishlar: ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik kabi sifatlar bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati omilkorlik va mahsuldarlikdan iboratdir. Bu yosh davrining

salbiy jihatlari (illatlari) ham bo'lib, ular ijobiy xislatlari yetarli bo'lmasligi, ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni hal qilishda aql - zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o'zlashtirishdagi qoloqlik va xokazolardir. Xuddi shu davrda shaxsning mehnatga munosabati shakllana boshlaydi.

Kognitiv yo'nalishning asoschilarini qatoriga J.Piaje, J. Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J.Piajening aql-idrok nazariyasi aql-idrok funktsiyalari (vazifalari) hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy funktsiyalari (vazifalari) uyushqoqlik va moslashish, ko'nikishdan iborat bo'lib, akl-idrokning funktional invariantligi deb yuritiladi. Muallif intellektni (aqlni) rivojlanish davrlariga ajratadi va 7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha davrni yaqqol xatti-harakat, aniq operatsiyalar davri deb ataydi.

J.Piajening g'oyalarini davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyachilarga qo'shish mumkin. Bu yo'nalishning namoyondalari L.Kolberg, D.Bromley, J.Birrer, A.Vallon, G.Grimm va boshqalardir.

Frantsuz olimi, psixolog A.Vallon bolaning jismoniy rivojlanishga qarab ajratgan. A.Vallon nuqtai nazariga ko'ra, kichik maktab yosh davri farqlash davri va o'smirlik davriga o'tishi (balog'atga yetish inqirozi davridir deb xisoblaydi).

Yana bir frantsiyalik yirik psixolog R.Zazzo o'z vatanidagi ta'lim va tarbiya tizimining printsiplaridan kelib chiqqan holda, insonning ulg'ayib borayotib bosqichlarni bosib o'tadi. Kichik maktab yosh davri Uchinchi (6-9 yosh) va Turtinchi bosqich (9-12 yosh)larni o'z ichiga oladi.

G.Grimm ontogenezda insonning kamolotini davrlarga ajratishni lozim deb kichik maktab yoshi davrini ikkinchi bolalik (8 yoshdan 12 yoshgacha) deb ataydi.

Dj.Birrer yosh davr tizimiga ko'ra 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lganlar bolalik davrida xisoblanadi.

D.Bromleyning tasnifida maktab bolaligi - 5 yoshdan 11-13 yoshgacha.

Biz uzoq, xorij mamlakatlar psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqlashning yo'nalishlari va nazariyalariga qisqacha to'xtalib o'tdik. Ulardan ko'rinish turibdiki, bu sohada bitta umumiylaz naziya hali ishlab chiqilmagan.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqlash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruxiy yangilanishlarga tayanib 8 yoshdan 12 yoshgacha bolalarni Maktab yoshi davrida deb xisoblaydi.

L.I.Bojovich insonning kamol topishini yosh davrlariga bo'lishda motivlarni asos qilib oldi, shuning uchun bu bo'lishni motivatsion yondashish, deb atash mumkin. L.I.Bojovichning mulohazasiga ko'ra, 7 yoshdan 11 yoshgacha to'rtinchi bosqich ijtimoiy jonzotlikni anglash davri xisoblanadi

D.B.Elkoninning yetakchi faoliyat (A.N.Leontev) nazariyasiga, xar kaysi rivojlanish pallasida biror faoliyat ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lib, unda asosiy faoliyat- o'qish bo'lib xisoblanadi.

Yuqorida e'tirof etilgan nazariyalardan tashqari A.A.Lyublinskaya, V.A.Krutetskiy, A.V.Petrovskiy, D.I.Feldshteynlarning nazariyalari ishlab chiqilgan. Ular orasida D.I.Feldshteynning qarashlariga e'tibor qaratamiz.

D.I.Feldshteynning fikricha, inson shaxs sifatida shakllanishda ikkita katta bosqichdan o'tadi, ulardan biri — “Men jamiyat bilan” nuqtai nazaridan iborat. U kichik maktab yoshidagi 10-11 yosh bolalarni o'smirlik davrining birinchi bosqichiga kiritgan. Shu yosh davr xususiyati o'ziga munosabatni kashf qilishdan iborat bo'lib, o'zini shaxs sifatida xis qilish va qat'iy qarorga kelish bilan yakunlanadi deb xisoblaydi.

Bolalarda “Men jamiyat bilan” nuqtai nazari ilk bolalik, kichik maktab yoshi, katta mакtab yoshi davrlarida faol va keng tus oladi, faoliyatning amaliy-predmetli jihatlari jadal o'sish jarayonida bo'ladi. Ularda “Men va jamiyat” nuqtai nazari vujudga kelishi mакtabgacha va o'smirlik davrlariga to'g'ri kelib, ularning ijtimoiy xatti-harakat majburiyatlarini, qoidalarini o'zlashtirishlari va boshqa shaxslar bilan munosabat o'rnatishlari, o'zaro muloqotga kirishishlari bilan ifodalananadi. Ana shu murakkab ijtimoiy-psixologik harakatlarga asoslangan D.I.Feldshteyn bolaning ijtimoiy o'sishdagi jamiyatga munosabatini asosiy (bosh) va oraliq munosabatlarga ajratadi. Bolada jamiyatga munosabatning shakllanishi

ijtimoiylashuv, individuallashuvning tarkibiy qismlarini egallah va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish orqali amalgalashadi. Asosiy (bosh) munosabat - insonning kamol topishida keskin siljish nuqtalari paydo bo'lishi, ichki sifat o'zgarishlari vujudga kelishi va yangi xislatlar tarkib topishining mahsulidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, D.I.Feldshteynning yosh davrlariga ajratish nazariyasi ontogenezdagi barcha psixologik holat va fazilatlarni ifodalash imkoniyatiga ega emas, ammo u ta'lim-tarbiyaning sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kichik mакtab yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishining xususiyatlari. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lган bolalar bo'lib ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu davrlarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning psixikasida hamda jismoniy rivojlanishida sezilarli darajada o'zgarishlar vujudga keladi. Kichik yoshdagi o'quvchi maktabgacha yoshdagi bolalarga va o'zidan kattaroq yoshdagi bolalarga nisbatan bir qancha jismoniy xususiyatlarga egadir. Kichik mакtab yoshida suyak tizimi mustahkam bo'lib qolgan bo'lsa-da, biroq suyaklarini qotishi jarayoni xali tamomlanmaydi. Shuning uchun bolalardan mashg'ulotlar davomida partada to'g'ri o'tirishini talab qilib, ana shu holga e'tibor berish kerak. Bolalarni ko'p yozish bilan charchatib qo'ymaslik kerak, chunki xali ular qo'l barmoqlari va panjani aniq harakat qildirishda qiynaladilar. Ularning yurak-tomir tizimi sistemasi xali yetarli, darajada rivojlanmagan bo'ladi, shuning uchun o'quv mashg'ulotlari va o'yinlar dvomida toliqtirib qo'yishga yo'l qo'ymaslik kerak. Kichik yoshdagi o'quvchida oliv asab tizimi oldingi yosh davrlarga nisbatan ancha yuqori darajada rivojlangan bo'ladi. Bola miyasining og'irligi 7 yoshdan keyin birmuncha ortadi. Agar 3–6 yoshda miya o'rtacha 1100 g kelsa, 7 yoshga borib u 1250g ga, 9 yoshgacha 1300g yetadi. Shu bilan birga 7yoshdan 11yoshgacha bosh miyaning peshana qismlari o'sayotganligi ayniqsa sezilarli bo'ladi. Bola 7 yoshdan 11yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Bo'yi va og'irligi organizimining pishiqligi, o'pkasining hayotiy hajmi ancha tekis va proportsional rivojlanadi. Kichik mакtab yoshdagi bolalarda yurak muskullari avval boshda ham ancha kuchsiz bo'ladi, tez o'sadi. Qon tomirlarining diametri

nisbatan katta bo'ladi. Miyaning funksional takomillanishi yuzaga keladi - miya po'stining analitik va sintetik funksiyasi rivojlanadi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabati sekin-asta o'zgaradi; tormozlanish protsessi ustunlik qiladi, shuning uchun kichik maktab yoshidagi bola yuksak darajada qo'zg'aluvchandir.

7 yoshdagi bolaninig jismoniy taraqqiyotini unchalik zo'r bermasdan va unchalik toliqtirmaslik 3–5 soat dars mashg'ulot o'tish va uy vafalarini bajarish imkonini beradi. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan yangi hayot faoliyatiga, yangi muxit sharoitiga kirib keladi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham, tevarak atrofdagi narsalarga munosabati ham o'zgaradi. Endi u o'quvchi degan sharaflı nomga ega uning muayyan vazifalari va o'quvchilik burchi bor. Bu yoshidagi bola maktab qoidalariga rioya qilishi, dars mashg'ulotlariga kechikmay o'z vaqtida yetib kelishi, darsda o'qituvchining tushuntirayotgan materiallarini tinglab uqib olish, topshiriqlarni o'zi bajarishi lozim. Darsda o'zini qanday tutishi, gigiena va tozalikka rioya qilishi o'qituvchi va kattalar tomonidan berilgan buyruq va ko'rsatmalarni so'zsiz bajarish, jamiyat orasida o'zini qanday tutishi, lozimligini bilishi kerak. Yashash sharoitidagi bunday o'zgarishlar bola psixikasining o'sishiga, xulq atvoriga, shaxsning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Maktabga kirish bolaning hayotida uning faoliyatida burilish davri hisoblanadi.

Kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar maydonga keladi. Bola butun bir yangi jamoalar tizimiga qo'shiladi. O'quvchi oldiga bir qator jiddiy talablarni qo'yadigan o'qishga- yangi faoliyat turiga qo'shilishi o'quvchilarni o'z hayotini qa'tiy tarzda tashkil qilishdagi qonun va tartibga bo'ysunishga majbur qiladi. O'quvchi ta'lif jarayonida axloqiy normalar va xati-harakat qoidalarini o'zlashtira boshlaydi. Kichik maktab yoshi davrida axloqiy xatti-harakatlarga poydevor qo'yiladi.

Maktabga kirish bilan bog'liq qayta qurilish va undagi qiyinchiliklar. Ta'limning boshlanishi bilan bola psixikasida keskin o'zgarishlar ro'y beradi. U psixik tomonidan qayta qurilishiga duch keladi. Psixologik qayta qurilish

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ayniqsa, I-sinf o'quvchilarida qiyinchiliklarni paydo qiladi. Bu qiyinchiliklar:

1. Birinchi sinf o'quvchilari ko'p harakatlarni intizom qoidalari talab qilgan darajada chaqqonlik bilan, sifatli qilib bajara olmaydilar. Lekin o'qish faoliyati doimiy ravishda intizom qoidalariga rioya qilishni, 35-45 minutlik darslarda sabr-toqat bilan o'tirishni, o'zini – o'zi tuta bilishni talab qiladi.

2. Ta'limning butun mazmuni boladan ixtiyoriy jarayonlarini: ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy idrok, xotirani rivojlangan bo'lismeni taqozo qiladi. Lekin bolada hali bunday jarayon yetarli rivojlangan bo'lmaydi.

3.O'quvchi mustaqil fikr yuritishi, vazifalarni mustaqil bajarishi lozim. Bu xususiyat hamma bolalarda ham birdek rivojlanmaydi.

4. Bola o'z burchini anglagan bo'lismi, yaxshi o'qishi va yaxshi intizomga ega bo'lismi, intizom qoidalariga rioya qilishni, uyga berilgan vazifalarni bajarishi uning burchi ekanligi his qilishi kerak.

5. Diqqat e'tiborni o'qituvchi aytganlariga qaratish uni idrok qilib esda olib qolish va kerak vaqtida ularni boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lmosg'i talab qilinadi. Bunday talablarga javob qaytarish so'zsiz o'quvchiga qiyindir. Bunday qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yenga bilishi asta – sekin va muntazam o'qish jarayonida materialni osondan qiyinga, oddiydan-murakkabga qarab tushuntirish, bolalarni o'qish faoliyatiga qiziqtirish, darslarni qiziqarli emotSIONAL va obrazli bayon qilish orqali bartaraf qilinadi.

Kichik maktab yoshida ta'lim jarayonini tizimli tashkil qilish, bolada beg'amlik davrining tuganlanganligidan dalolat beradi va o'qishga bo'lgan munosabatlar tobora o'zgarib boradi. Bu davrda bolaning qiziqishlari o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga asta-sekin ko'chib o'tadi. O'qishga xos qiziqishlar ko'pincha bolalarning o'yin faoliyatiga ta'sir etadi, o'qishga xos qiziqishlar ko'pincha o'yinlar xarakteri va mazmuniga ta'sir qiladi. Har qanday ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan motivlarga bog'liq bo'lib, odam ana shu motivlar yordamida ish bilan shug'ullanadi. O'qish motivlari har xil bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarini bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlashlarida motivlarga kamroq amal qiladilar. Bola hali motiv haqida o'ylab ko'rishdan ancha

uzoqda. Kichik maktab yoshidagi bola o'z bilim doirasini kengaytirish, foydali bilimlar olish, shuningdak, jamiyat oldidagi o'z burchini bajarish haqida ham uncha bosh qotirmaydi. Barcha mana shu motivlar unda ikkinchi darajali narsaga aylanadi. Ammo, yuqorida aytib o'tganidek, uning o'zi nima qilayotgan va maktabda bilib olayotgan narsaga bevosita qiziqishi, shuningdek, o'qituvchi, ota-onalar talablarini bajarishga intilishi, maqtov eshitishi, qilgan ishining ma'qul topilishi, yaxshi baholar olishi va hakozolar o'qishga nisbatan qiziqish uyg'otishning eng muhim vositalariga aylanib qoladi.

Kichik maktab o'quvchilarining o'qish faoliyati. O'quv jarayoni I sinf o'quvchilarini o'ziga jalb qiladi. Chunki o'quv faoliyatida zavqli o'quvchi bo'lish, maktab talablarini ado etish maroqlidir. So'ngra o'qish jarayonining o'ziga bo'lган qiziqishi o'qish samarasiga ko'chadi. O'qituvchi bolalarning muayyan maqsadga qaratilgan faoliyatga qiziqishlarni rivojlantiradi. Ta'llim jarayonida o'quv amalarini o'qituvchi tomonidan nazorat qilib borilishi o'quvchini o'qishga bo'lган qiziqishlarini rivojlantiradi va o'qish faoliyati motivi muayyan bir maqsadga aniq yo'naltirilmagan bo'lsa, 3–4 sinf o'quvchilarining o'quv motivlari aniq bir maqsadni ko'zlashga qaratiladi. Ular nima uchun yaxshi o'qish, bilim olish, a'lochi bo'lishning motivlarini his qiladi. Ular yaxshi o'qisa, bilim olsa kelgusida, muxandis, o'qituvchi, shifokor bo'lishini biladi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish ekanligini tushungan o'quvchi muhim ijtimoiy vazifa – o'qish, bilim orttirish vazifasidan iborat ekanligini bilib oladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir.

Bolaning maktabga kirishi bilan butun hayot tartibi, ijtimoiy holati, jamoadagi, oiladagi ahvoli keskin o'zgarib ketadi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish bo'lib qoladi. Muhim ijtimoiy vazifa – o'qish bilim orttirish vazifasidan iborat bo'lib qoladi.

Bolaning mакtab o'quvchisi bo'lshi uning hayotida "burilish"ni yuzaga keltiradi. Uning asosiy faoliyati, birinchi va eng muhim vazifasi o'qish, ya'ni yangi bilimlarni, ko'nikma va malakalarni ortirishdan, tabiat hamda jamiyat haqida sistemali ma'lumotlar to'plashdan iborat bo'lib qoladi. O'z – o'zidan ma'lumki,

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga nisbatan yuksak javobgarlik munosabati birdaniga tarkib topib qolmaydi. Bunda anchagina individual farqlar kuzatilsa ham o'qishga bo'lgan munosabatlar va motivlarining rivojlanish dinamikasi odatda qonuniy xarakterga ega bo'ladi. Yetti yoshli bolalar ta'limning boshlang'ich davrida mакtab mashg'ulotlarining yaqin kelajakdagi istiqbollarini ijobjiy idrok qiladilar. Bolalarda hatto xarakterli xususiyatlarni jixatlardan farq qiladigan o'ziga hos ehtiyoj ham paydo bo'ladi. Bu aslida hali o'qishga bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj emas, biron yangi narsani, tevarak- atrofdagi voqelik hodisalarни bilishga bo'lgan ehtiyojdir. Bu ehtiyoj o'zining kichkina bolalik xolatini o'zgartirish, mustaqillikning navbatdagi bosqichiga ko'tarilishi, oilani katta va ish bilan band a'zosi bo'lishi istagidir. Bunda o'qishning tashqi belgilari yangi forma kiyish hoxishi, o'z shaxsiy papkasiga ega bo'lish, mashg'ulotlar uchun o'z joyiga ega bo'lish, kitoblarini qo'yish uchun javonchaga ega bo'lish xuddi otasi yoki onasi ishga borganlaridek har kuni mакtabga borish xohishi katta ahamiyatga ega. Shu bilan kichkina bolalar ko'zi oldida yuksaklikka ko'tarilishdek yoqimli istiqbol ularni maftun etadi. Mакtabga bo'lган bunday munosabatning mustahkamlanishiga ikkinchi sentyabrdagi tantanali bayram sharoiti mакtab o'quvchisi degan nom berish an'anasi ham anchagina yordam beradi.

Bola hali mакtabga bormasdan oldinoq, ya'ni oiladan va bog'chada ijtimoiy hayotimizning turli sohalari bilan, ayniqla mакtab hayoti, ularning xilma-xil faoliyatlarini bilan tanishadi va unda yuksak ijtimoiy qiziqish-havas kurtaklari paydo bo'la boshlaydi.

Bola mакtab yoshiga kirib mакtab borishga, o'quvchi bo'lishga g'oyat darajada qiziqadi. Bu uning gap-so'zlaridan va qilayotgan harakatlidan ham ko'rinish turadi. Shu kezlari bola mакtab va mакtabda o'qish uchun kerak bo'ladigan narsalar to'g'risida ko'proq gapirodi. Sumka, "Alifbe", qalam, daftar va sanoq cho'plarini tezroq tayyorlab qo'yish ustida ko'proq bosh qotiradi. Shu bilan birga u o'zining to'plagan o'quv qurollarini nihoyatda avaylab sumkasiga solib, qayta-qayta sumkasidan olib ko'rib, bularni mакtabga ko'tarib borishga oshiqadi va bunga juda ham havas qiladi. Biroq o'qishga bo'lган dastlabki bunday havas

uning tabiatga xos bo’lgan “Bu nima?” tarzidagi tekshirish refleksi asosida yuzaga keladigan faoliyatdan iborat bo’lsa ham, lekin ularda ko’rina boshlagan bunday qiziqish-havas talim-tarbiya jarayonida takomillasha boradi. O’qish bo’lsa - boladan ma’lim uyushqoqlikni, intizomlilikni, anchagina irodaviy zo’r berishlikni talab qiladigan jiddiy mehnatdir.

Maktab ta’limining birinchi kunidan boshlab kichik mактабгача yoshdagi bolaning rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch bo’lgan asosiy qarama – qarshilik yuzaga keladi. Bu qarama – qarshilik bola shaxsiga, uning diqqati, xotirasi, tafakkuriga nisbatan o’quv ishlari, o’qituvchilar hamda jamoa tomonidan qo’yilayotgan va doimo orttirib borayotgan talablar bilan o’quvchining mavjud psixik rivojlanish darajasi o’rtasidagi qarama-qarshilikdir. Talablar hamma vaqt o’sib boraveradi va bolaning mavjud psixik rivojlanish darajasi ana shu o’sib borayotgan talablarga tenglashishga to’xtovsiz ravishda intilaveradi. To’g’ri tashkil etilgan ta’limda bu turdagи bolalar o’rta maktab dasturida ko’rsatilgan bilimlarga nisbatan ko’proq bilimlarni tushunishlari va o’zlashtirishlari mumkin. Kichik mактабгача yoshdagi bolalarning o’ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o’quv materialini o’zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko’zga tashlanadi. O’zlashtirmaslikning asosiy sabablari: bu aqliy taraqqiyot va o’quvchanlikning bir muncha orqada qolishidir. N.S.Leytes mulohazalariga ko’ra inson yoshi ulg’aygan sari aqliy rivojlanish darajasi bir muncha ko’tariladi, uquvchanlik esa bir muncha pasayadi. Kichik mактабгача yoshdagi bolalarning uquvchanligi albatta o’smir va o’spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o’smir va o’spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang’ich sinf o’quvchilariga nisbatan yuqoridir.

Oradan ma’lum vaqt o’tgach shodiyona lahzalarining ta’siroti kamayishi bilan mактабning tashqi belgilari o’z ahamiyatini yo’qota boradi va o’qishning kundalik aqliy mehnat, irodaviy zo’r berish, yoqtirmagan narsa bilan shug’ullanish, diqqatni taqsimlash, o’z xulqini idora qilish ekanligini anglaydi. Shunday aqliy mehnat ko’nikmasiga ega bo’lmasa, uning o’qishdan ko’ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O’qituvchi esa bunday xolning oldini olish uchun bolaga ta’limining o’yindan farqi, qiziqarlligi haqida ma’limotlar berishi va uni

shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining aynan o'ziga qiziqish ko'zga tashlanadi. Psixolog olimlar o'tkazgan maxsus tadqiqotlarda bolalar bilan keraksiz mashqlar o'tkazilgan va ularga oldindan bu mashqlar keyinchalik kerak bo'lmasligi aytilgan, lekin bolalar ularni bajarishga kirishganlar. O'quvchi shaxsiy faoliyatida erishgan dastlabki yaxshi natija uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat maxsuli shodlik va quvonch his-tuyg'usini keltirib chiqaradi.

Masalan: ayrim o'quvchilar u yoki bu matnni bir necha martta o'qishga harakat qiladi. O'qish faoliyatiga qiziqish, uning mazmuniga ham qiziqishini vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Shaxs shakllanishida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash va unda o'qishg ijobiy munosabatni shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. 7 yashar bo'lgan bolalardagi maktabga, o'qishga bo'lgan bu xildagi dastlabki qiziqish – havaslar, asosan ulardagи ixtiyorsiz diqqat protsessida ro'y beradigan bevosita qiziqish – havaslardir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda keyinroq borib o'z diqqat –e'tiborini muayyan bir narsaga, voqelik va hayotning ma'lum bir sohasiga, ma'lum bir faoliyatga birmuncha uzoq vaqt va barqaror qaratilishida ifodalanadigan bavosita qiziqishlar sekin- asta yuzaga kela boshlaydi.

Dars jarayonida va darsdan tashqi mashg'ulotlarda o'quvchilar tevarak – atrofdagi narsa va hodisalarni kengroq tushunib boradilar. Har xil narsalarga qiziqa boshlaydilar, ularning qiziqishlari borgan sari takomillashib, barqaror tus ola boradi. Endi mакtab o'quvchilarini tevarak – atrofdagi ayrim hodisalargina emas, balki o'sha hodisalarning sodir bo'lish sabablari ham ko'proq qiziqtira boshlaydi. Shuning uchun ham bu davrda bola tomonidan beriladigan har xil "Nega bunday?", "Nimadan qilingan?", "Bu nima uchun kerak?" singari so'roqlar yanada ko'payib ketadi.

Bolada ta'lim-tarbiya jarayonida ko'proq narsalarni bilib olishga, yuqoriyoq baholarga erishishga muayyan darajada ehtiyoj va zarurat paydo qilish kerak. Shundagina u o'zidagi buday talabni qondirishga harakat qiladi va aktiv faoliyat

ko’rsatadi. Dars materiallarini bilib olishga, o’qituvchining topshiriqlarini yaxshilab bajarishga intiladi. Buning uchun esa bolani muayyan kun tartibiga odatlantirish va doimo dars tayyorlashga o’rgatish lozim. Shundagina u o’qishda muayyan daraja muvaffaqiyatlarga erisha oladigan bo’ladi va unda o’qishga havas uyg’onadi.

O’qishning dastlabki kunlarida bolalar sinfdagi dars mashg’ulotlariga juda ham qiziqadilar. Ularni ko’proq rasm chizish, yozish, doskaga chiqish, qo’l ko’tarib o’qituvchi savollariga javob berish singari ishlar qiziqtiradi. Keyinroq borib ular faqat darsdagi mashg’ulot jarayonining o’zigagina emas, balki mashg’ulotlarning mazmuniga ham qiziqa boshlaydilar. Shu kezlari bola o’zining sinf va uyida bajarib kelgan ishlarini, yozma narsalarni o’qituvchiga tezroq ko’rsatishga oshiqadi. O’qituvchining o’quvchi bajargan vazifani og’zaki maqullashi ham uni g’oyatda quvontiradi.

Bolalarning bu xususiyatlarini yaxshi bilgan mohir o’qituvchilar e’tiborini ko’proq yozishga va berilgan topshiriqlarni tezroq bajarish lozim ekanligigagina emas, balki topshiriqlarni sifatli qilib bajarish, to’g’ri va chiroyli qilib yozish kerakligiga ham jalab etadilar hamda topshiriqlarni yaxshilab bajargan, to’g’ri va chiroyli yozgan o’quvchilarni o’z vaqtida rag’batlantirib boradilar. Natajada o’quvchilar sekin-asta dars mashg’ulotlarining mazmuniga qiziqadigan va ularni sifatli qilib bajarishga harakat qiladigan bo’lib qoladilar. O’quvchilar o’qituvchilarning “yaxshi yozibsang”, “to’g’ri bajaribsan”, “barakalla” singari og’zaki ma’qullashigagina emas, balki uning o’zlarining daftarlarga qo’yib beradigan baholariga ham qiziqa boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda o’qishga qiziqishning ortib borishida ularning o’z bilim va tushunchalarning takomillashib borayotganligini sezib borishlar, o’z imkoniyatlarining o’sib borayotganligini tushunishlari katta ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, maktablarda bolalarni og’zaki baholash odad tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o’quvchisi ana shu baho ta’sirida o’z faoliyatini kuchaytiradi, ijodiy izlanishga harakat qiladi. Hatto, o’quvchi dastlabki paytlarda “yaxshi” yoki “yomon” bahoning farqiga ham bormaydi, uni ko’proq nechta baho olgani

qiziqtiradi. O'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun eng muhim ahamiyatga ega.

Ko'pchilik mutaxassis olimlar kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlarga olib keladi deb hisoblaydilar. Ma'lumki, faqat baho uchun o'qish bilimning ijobiy ahamiyatini pasaytirishi mumkin. shunga ko'ra bilimni tekshirishning boshqa usullarini topish hamda qo'llash hozirgi kunning dolzARB vazifalaridan biridir.

O'quvchilarnig olgan baholariga kattalarning munosabati ham ularning o'qishga qiziqishlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, o'quvchining olgan baholariga o'qituvchi va ota-onalarning beparvolik bilan qarashlari undagi o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchilar va ota-onalarni bolalarning oladigan baholariga alohida e'tibor berishlari, ular olgan yuqori baholarini ma'qullab turishlari va harakat qilinsa, hamma fanlardan ham yuqori baho olish mumkinligini aytib, ularni rag'batlantirib turishlari juda muhimdir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xilma – xil qiziqishlar bilan birga individual qiziqishlar ham tug'ilal boshlaydi. Ba'zi o'quvchilar rassomlik ishlariga ko'proq qiziqsalar, boshqalari musiqaga yoki she'riyatga muhabbat qo'yadilar. Shuningdek, ayrim o'quvchilar matematika yoki texnikaga qiziqsalar, ba'zilari ona tili yoki tibbiyotni yaxshi ko'radilar. Bulardan tashqari, ayrim o'quvchilarda har – xil kasblarga bo'lgan individual qiziqishlar ham ko'rina boshlaydi. Lekin bu yoshdagi o'quvchilarning orzu – havaslari hali tez – tez o'zgarib turadigan bo'ladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, ba'zi o'quvchilardagi ayrim narsalarga bo'lgan qiziqish umrbod saqlanib qolmog'i ham mumkin. Muayyan va doimiy qiziqish – havaslar o'quvchilarda asosan ayrim o'smirlilik davrida tarkib topib borayotgan ideallar bilan bog'liq ravishda vujudga keladi va o'sadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'qituvchi bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql-idrok sohibi, tiyrak,

sezgir, mehribon, hatto donishmand inson deb biladi. O'qituvchi siyosida o'zinig ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi mo''tabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik xolatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa oilasidagi muhitlarigi ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va munosabatining quyidagi uslublari mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiq qo'lllik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarni so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin nima uchun qattiqko'lllik qilayotganini yoki o'quvchilarga nima uchun o'z— o'zlarini shunday tutishlari lozimligi tushuntirib bermaydi, shuningdek o'quvchilarni o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilaridan jumladan asab tizimining qo'zg'aluvchanlik darajasini ham e'tiborga olmaydilar. Bu uslub o'quvchini sinfdan, o'qituvchidan uzoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik sinfda intizomli o'quvchida yakkalashuv, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini berishi, lekin bu o'zlashtirish asosan xotira evaziga bo'lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan

ortda qolishga sabab bo'ladi, unda doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchszilikni keltirib chiqaradi.

Imperativ uslubda o'quvchilar o'qituvchi sinfda bo'limgan vaqtarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'limganligi uchun ham intizomga mutloqo bo'ysunmaydilar. Bu asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin bu irodada o'quvchiga nisbatan muhabbat hamda o'quvchining "ustozim meni yaxshi ko'radi" degan fikri emas, balki u qo'rquv hissining mavjudligidandir.

Demokratik uslub - o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvafaqqiyatga erishish garovi sifatida bolalar ijobjiy emotsiyani: o'ziga ishonch o'z muvaffaqiyati, yutuqlaridan quvonish, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini shakllantiradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. Shu bilan birga o'zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan holda o'zi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini anglatadi. O'zini-o'zi boshqarishga o'z xatti-harakatlarini o'zi nazorat qilishga o'rgatadi. Har bir ishga ma'suliyat bilan yondashish hissi o'qituvchning shu yoshdagи bolalar bilan demokratik muomala va munosabati asosidagina shakllanadi.

Liberal uslub - kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslub. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir bola o'zi tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. Bola o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatidagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutloqo zid uslub hisoblanib bolalar shaxsini shakillantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala munosabatidagi imperativ uslub, asosan ma'lum bir chegaralarga asoslangan xolda bola shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab qilgan holda, bola shaxsining ijobjiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emotsional zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojlanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi.

O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faoliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kichik mактабгача yoshdagi o'quvchilarda bilish jarayonlarining o'sishi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining bilish jarayonlari mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarning bilish jarayonlaridan keskin farq qilishi bilan birga u sifat jihatidan ham o'zgara boshlaydi va tez rivojlanadi. Ma'lumki, diqqat o'qish jarayonining zarur sharti bo'lib hisoblanadi. Idrokning to'laligi, to'g'riliqi, tezligi, esda qoldirishning tez va aniqligi diqqatga bog'liqdir. Fikrlash jarayonlari diqqat tufayli aniq mantiqli, mazmunli bo'ladi. Chunki o'quvchilarning mustaqil ravishda masala yechishi va bu masalani tushuntirishi eng oldin ular diqqatining kuchi va barqarorligini ta'minlaydi. O'quvchilarning aqliy faoliyatining zarur shartlari bilan ta'minlash uchun o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatining xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kichik yoshdagi o'quvchilarni bosh miya yarim sharlari po'stida juda tez paydo bo'ladi. Shu sababli, agar bir qo'zg'ovchi bolaning miya qobig'ida qo'zg'alishni vujudga keltirsa, unda ikkinchi qo'zg'ovchi bosh miyada juda tezlik bilan yangi qo'zg'alish o'chog'ini tormozlab qo'yishi mumkin. Bu kichik yoshdagi bolalarning diqqatini juda tez va oson chalg'itish mumkinligini ko'rsatadi. O'quvchilar diqqatining bu xususiyati ularning darsda o'qish materiallarini o'zlashtirishlariga xalaqit beradi. Shu sababli o'qituvchi bola diqqatining bunday xususiyatlarini doimo esta tudgan holda, darsni uning bir mazmuni bilan ikkinchisini bog'lab ustalik bilan o'tkazishi va bularni bir – birini tormozlab qo'ymasligi uchun darsning har bir bosqichini yaxshilab o'ylab ko'rishi kerak.

O'qish jarayonining ta'siri ostida kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatining barcha xususiyat va sifatlari intensiv ravishda o'sib boradi va bu bilan ixtiyorsiz diqqatdan ixtiyoriy diqqatga ko'chish jarayoni osonlasha boradi. Kichik yoshdagi o'quvchilik davrida diqqat tez o'sadi mактабдаги ta'lim–tarbiya ishlari sinflarda olib boriladi. Ishlar bolaning diqqatini shakllantiruvchi va tarbiyalovchi yangi sharoitdir. Ixtiyorsiz diqqat qiziqish bilan mustahkamlanishi sababli, har bir o'qituvchi o'z darsini qiziqarli va maroqli qilishga intiladi. Lekin shu narsani yodda tutish lozimki, o'quvchilarning diqqatini bevosita qiziqarli va maroqli

bo'limgan narsalarga ham qaratishga o'rgatish kerak. Aks holda nozik va injiq diqqat paydo bo'lib qoladi. O'quvchi faqat qiziq narsalarga diqqatini qaratishga o'rganib qolsa, unday holda faoliyatining qandaydir elementlari bevosita qiziqish uyg'otmasa, o'quvchi ixtiyoriy diqqatini bu elementlarga safarbar eta olmaydi. Diqqat barqarorligining nisbatan kuchli bo'lmasligi uning yosh xususiyatidan iboratdir. Bu asosan I va II sinf o'quvchilari uchun xarakterlidir. Kichik mifik yoshdagi o'quvchilar diqqatining beqarorligi tormozlanish jarayonining yosh bilan bog'liq bo'lgan zaifligi natijasidir. I sinf o'quvchilari, ba'zan esa II sinf o'quvchilari ham biron ishga o'z diqqatini uzoq vaqt davomida to'play olmaydilar. Ularning diqqati osonlik bilan chalg'ib ketadi. Shu sababli ular vazifani o'zlari bajara olmasliklari, faoliyatining tempini va ritmini yo'qotib qo'yishlari, so'zlarda harflarni, gaplardan so'zlarni tushirib qoldirishlari mumkin.

Tadqiqotlarning ko'rsatilishicha I va II sinf o'quvchilari 30-35 minut davomida jim o'tirishlari va o'z diqqatlarini saqlab turishlari mumkin. Bundan ortiq saqlab tura olmaydilar. Darsni tashkil qilishda buni hisobga olib, ishda kichkina tanaffuslar qilish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlariga asoslanib diqqatni tarbiyalashning ayrim usullarini ko'rsatib o'tamiz.

1. Diqqatni rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlarini samarali o'tish uchun qulay bo'lgan tashqi sharoitlar katta ahamiyatga egadir. O'quvchi shug'ullanayotgan xonada uning diqqatini chalg'ituvchi, qo'zg'atuvchi (shovqin-suron, ortiqcha gap-so'z, ishga keraksiz buyum)lar bo'lmasligi tegishli gigiena sharoitlariga sof havo, yorug'likning yetarli bo'lishiga rioya qilinishi kerak.

2. Ixtiyorsiz diqqatni tarbiyalash uchun mifik bilimiga oid qiziqishlarini rivojlantirish uning tasavvurlari doirasini kengaytirish kerak. Bolaning umumiyligi aqliy rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, unda ixtiyorsiz diqqat shunchalik kuchli rivojlangan bo'ladi.

3. Mifik mashg'ulotlarining dastlabki haftalarida o'qituvchining hikoya va ertaklar o'qib berishi diqqatni tarbiyalash uchun yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi.

4. Darsni yaxshi tashkil etish diqqatni jalg qilishning va saqlab turishning muhim shartidir. Buning uchun o'qituvchi darsga vijdonan tayyorgarlik ko'rishi, mashg'ulotlar rejasini va ularni to'g'ri taqsimlash va boshqalarni atroflicha o'yab ish ko'rishi zarur.

5. Darsning boshlanishida o'qituvchilar o'z vazifalarini tushunib olishlari, nima bilan shug'ullanishlarini bilishlari uchun darsning maqsadini ma'lum qilgan foydalidir.

6. Ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy jalg qilish uchun o'quv materiallarining mazmuni va uni bayon qilish shakllari o'qituvchining jonli, yorqin, iloji boricha ta'sirli hikoyasi, aniq masalalar keltirishi, rasmlar ko'rsatishi, ko'rsatmali qurollarni qo'llanilishi katta ahamiyatga egadir.

7. Diqqatning ikkilanishi va chalg'ishining mavjudligi, bolalarning charchab qolishi bot-bot dam olishini, dam olish daqiqalarni o'tkazishni, shuningdek mashg'ulotlarni bir – biri bilan o'zgartirib turishni talab qiladi.

8. Materialni bayon qilishning o'zi bir ohangda va bir xilda bo'lmasligi, balki jonli jo'shqin xarakterda bo'lishi zarur.

9. Diqqatni jalg qilish uchun bolalarning o'quv ishlarini faolashtirish zarur. Ular ko'proq o'yashlari o'z kuchlari yetadigan ishlarning hammasini o'zлari mustaqil bajarishlari kerak.

10. Diqqatni rivojlantirishda o'quvchining o'ziga o'rgatilayotgan narsani tushunishi katta ahamiyatga egadir. Agar biror narsa uning uchun noaniq bo'lib qolsa, diqqati susayishi mumkin.

11. O'quvchining ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun unda o'qishga ongli munosabatini, burch tuyg'usini, o'z ishi va xulq-atvori uchun mas'uliyatni tarbiyalamoq kerak. Ixtiyoriy diqqat bolaning xarakteri va irodasiga ayniqsa, bog'liq bo'ladi.

12. Bolalarda parishonxotirlikni barham toptirishga, xatto ish yoki dars qiziq va oson bo'lмаган vaqtda ham sabot–matonat va tirishqoqlik ko'rsatishga intilishini ham tarbiyalash kerak.

Bolalar bilan ishlashda diqqatning ikki turini jalg qilish uchun iloji boricha ularni bir–biri bilan almashtirib, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatni vujudga

keltirgandagina o'qituvchi ta'lim vazifasini ham, tarbiyaviy vazifani ham muvaffaqiyatli hal eta oladi. Shuningdek, o'qituvchi bolani qaysi diqqat turi bilan band bo'lsa, undan unumli foydalanilishi lozim. Chunki agar bolani doimo ihtiyyoriy diqqat bilan o'tirishini talab qilinsa bola tez toliqadi. Boshlang'ich sinflardagi o'qish faoliyati dastavval psixik jarayonlarning rivojlanishini, ya'ni tevarak – atrofdagi olamni bevosita bilishini – sezgi va idrokning rivojlanishini stimullashtiradi.

Kichik mакtab o'quvchilarida sezgi va idrokning rivojlanishi. Maktabga yoshdagи bolalarda analizatorlar batomom tarkib topgan bo'ladi, biroq ularning rivojlanishi mакtab yoshida ham davom etadi. Analizatorlar bir xilda rivojlanmaydi. Kichik mакtab yoshida ko'zning o'tkirligi birmuncha sekinroq sur'at bilan ortadi, o'smirlarda esa bu sur'at yana kuchayadi. Shu bilan birga kichik mакtab yoshidagi o'quvchida ko'rish va eshitishga oid qo'zg'atuvchilarni farqlash qobiliyati tez rivojlanadi. Bu davrda yaqin joyda turgan predmetlarga (daftar, kitob) va bir muncha uzoqroqda turgan narsalarga (sinf doskasi, devordagi karta) qarash uchun ko'rish apparatini tezda boshqacha to'g'rash ko'nikmasi ham sezilarli darajada takomillashadi. Bolalar maktabga asosiy ranglarni bilgan holda keladilar. Qiz bolalarda ranglarni sezish xususiyati o'g'il bolalarga qaraganda birmuncha kuchliroq rivojlangan bo'ladi. Bunga sabab o'yin faoliyati qizlar narsalarning rangi bilan o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq qiziqadilar.

Eshitish qobiliyatining o'tkirligiga kelganda shuni aytish kerakki, bu qobiliyat kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda maktabgacha yoshdagи bolalarga nisbatan bir muncha o'sgan bo'ladi. Maktabdagi ta'limning dastlabki yillarida so'zlarni eshitish qobiliyati ayniqsa rivojlanadi, bunga o'qish va yozishni o'rganish yordam beradi. O'z navbatida fonematik eshitish qobiliyati yetarli darajada rivojlanadi, o'qish muvaffaqiyatlariq boradi.

Maktabdagi boshlang'ich sinflar o'qituvchisining muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarning sezgilariga hos bo'lgan xususiyatlarga diqqat bilan qarash va ularning sezgirlingini oshirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishdir. O'qituvchi o'z o'quvchilaridan qaysi birining ko'zi ravshan ko'ra olmasligini (yaqindagini yoki uzoqdagini ravshan ko'rishini) qaysinisi yetarli darajada yaxshi eshitmasligini

bilishi lozim. Sezgi organlarida nuqsonlari bo'lgan bolalarni tabibga ko'rsatishi zarur, sinfda esa ularni yaxshiroq ko'radigan va eshitadigan qilib o'tqazish kerak. Shu bilan birga o'qituvchi bolalarda sezgilarning rivojlanishi to'g'risida ham g'amxo'rlik qilishi lozim. Rasm solish, musiqa, qo'shiq aytish bilan shug'ullanishi, tabiat quchog'iga, muzeylarga, surat ko'rgazmalariga ekskursiyalar uyushtrishi va boshqalar sezgilarini rivojlanishiga ma'lum darajada yordam beradi.

Kichik məktəb yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi va sofligi bilan farq qiladilar. O'quvchilarning idroki o'ziga xoslik bilan farq qiladi. Buni oliy asab faoliyatining yosh xususiyatlari va birinchi signal tizimining nisbatan ustunligi bilan tushuntirish mumkin. Kichik məktəb yoshidagi o'quvchi o'zining oldida har kuni qandaydir bironta yangilik ochib beradigan tevarak-atrofdagi olamni jonli qiziqish bilan idrok qiladi. Biroq o'quvchining bu idroki o'quv yili boshlarida o'ziga xos xususiyatlar uning yosh jihatdan bo'lgan kamchiligi haqida gapirishga imkon beradi.

Kichik məktəb yoshidagi bolalar idrokining eng xarakterli tomoni – uning kam differentialsialashganidir. Kichik məktəb yoshidagi o'quvchilar o'xshash ob'ektlarni noaniq va xato differentsiyallallashtiradi: ba'zan yozilishi jihatidan yoki talaffuz qilinishi jihatidan o'xshash harflar va so'zlarning o'xshash predmetlar tasvirining va o'zaro o'xshash predmetlarning farqiga bormaydilar va ularni aralashtirib yuboradilar. Bu hol idrok qilishdagi tahlil qilish funktsiyasining yoshga xos zaifligi bilan bog'liqdir. Idrokning yuzakiligi shunga olib keladiki, kichik məktəb yoshidagi o'quvchilar predmetining ayrim belgilarini yaxshi sezmaydilar, ularni bir – biri bilan bog'lamaydilar va uning eng muhim sifatlarini ko'rmaydilar. Yorqin, katta, harakat qiladigan hamma narsalar ularning diqqatini o'ziga tortadi. Shuning uchun ko'zga yaqqol ko'rinish turadigan narsalarni bolalar mavhum abstrakt materialga qaraganda yaxshiroq idrok qiladilar. Ammo yil sayin kichik məktəb yoshidagi o'quvchilarning idroki ancha yetuk, to'liq bo'lib boradi. Idrok qilinadigan predmetdagagi ikkinchi darajali narsa keyingi rejaga o'tib, muhim, asosiy narsa aniq ko'zga tashlanadi. Bolalar idrokida ko'pincha analiz va sintezning yetishmasligi ko'rinish turadi, ularning yoshida idrok qilish his-tuyg'ular bilan mahkam bog'langan bo'ladi. Bola atrofdagi muhitni befarq idrok etmaydi: ko'p

narsa uni quvontiradi yoki xafa qiladi. O'quvchilarda idrok qilish ko'pincha noaniq bo'ladi. Ular bir-biriga o'xhash narsalarni aynan bir xil narsalar, deb qabul qiladilar. Masalan, shaharlik bolalar chittakni qarg'a deb qabul qilishlari mumkin. Idrok qilishning noaniqligi I sinf o'quvchilarida kitob o'qish faoliyatida o'z ta'sirini ko'rsatadi, ular bu vaqtida o'qilayotgan so'z o'rniga unga o'xhash bo'lgan boshqa so'zni aytib yuboradilar. Masalan: "o'yADI" o'rniga "o'YNADI", yoki "BAHOR" o'rniga "BAHO" deb o'qishlari mumkin.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda makонни idrok qilishi ham yetarli darajada rivoj topmagan. Ular asosiy uzunlik o'lchovlarining nomini bildiradilar—у, lekin ularda masalan bir kilometrga teng bo'lган masofaning qancha bo'lishi to'g'risida aniq tasavvuri yo'q. O'quvchilarda vaqtни idrok qilish ham sust rivoj topgan. Ba'zi bolalar dars va soat vaqt jixatidan bir—biriga teng deb hisoblaydilar. Bolalar idrokini zaif tomonlariga shu narsa sabab bo'ladi, ularda bilim va tajriba yetishmaydi. Lekin ana shu bilim va tajriba paydo bo'lib borgani sari bola dunyonи tobora aniqroq va to'g'riroq idrok qila boshlaydi.

O'qish faoliyati kichik mакtab yoshidagi o'quvchining aql-idrokni sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolishi va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart—sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lrim jarayonida ularning bilimlari ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagи bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravshanligi o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kichik mакtab yoshida o'quvchilarda xotiraning rivojlantirish. Kichik mакtab yoshida o'quvchilarda xotira ta'limning ta'siri bilan ikki yo'nalishda rivojlantiriladi. So'z-mantiq xotirasining va ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli va uning salmog'i kuchayadi va bola o'z xotirasini ongli ravishda boshqarish hamda xotiraning namoyon bo'lishini, tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi. Birinchi signal tizimi faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik mакtab

yoshidagi o'quvchilarda so'z—mantiq xotiraga nisbatan ko'rgazmali—obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qoida va tushuntirishlarga qarorlarda aniq narsalarni ma'lumotlarni, voqealarni, qiyofalarni, narsalarni va faktlarni yaxshi, tez esda olib qoladilar va xotiralarida mustahkam saqlaydilar. Ayniqsa I – II sinf o'quvchilari esda olib qolinadigan materialning ichki ma'naviy bog'lanishlarini anglamagan xolda mexaniq tarzda esda olib qolishga moyil bo'ladilar. Ular ko'pincha o'quv materialini qayta ko'rmay, hech o'zgartirmay, uning mazmunini boshqa so'zlar bilan aytib berishga intilmay, so'zma—so'z yodlashga va qayta tiklashga intiladilar. Buni quyidagi xolatlar bilan tushuntirib o'tamiz.

Birinchidan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mexaniq xotira yaxshi rivojlangan bo'ladi va u ko'pincha ortiqcha mehnat sarf qilmay, materialni so'zma—so'z esda olib qoladilar;

Ikkinchidan kichik maktab yoshidagi o'quvchining oldida esda olib qolish vazifasini ajrata, differentsiatsiya qila olmaydi. O'qituvchi bo'lsa, bu xususda ko'pincha o'quvchiga yordam bermay, materialni to'g'ri va yetarli darajada to'la qaytarib berishni talab qilish bilan cheklanadi;

Uchinchidan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ayniqsa I-II sinflarda hali nutqni yaxshi egallamagan bo'ladilar. Ularga materialning umumiy ma'nosini o'z so'zları bilan aytib berish osonroq bo'ladi;

To'rtinchidan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ko'plari hali ma'nosiga tushunib, esda olib qolishni tashkil qila olmaydilar: ular materialni ma'nosiga qarab guruhlarga bo'lishni, mantiqiy jadvallardan foydalanishni, esda olib qolish uchun tayanch punktlarni ajratishni va materiallarni qayta o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan tekstning mantiqiy rejasini tuzishni bilmaydilar.

Mantiqiy xotira, ya'ni materialning ma'nosini, mohiyatini, fikrlarni, dalillarni, asoslarni, mantiqiy jadvallar va mulohazalarini esda olib qolish hamda qayta esga tushirish qobiliyati ta'lim jarayonida rivojlanib, asta—sekinlik bilan yuzaga keladi. Mantiqiy xotirani rivojlanishini har tomonlama stimullashtirish, bolalarni materialni yaxshi esda olib qolish uchun uning ma'nosini anglashga undash, materialni qayta qurish va uni asosiy mazmunini saqlab qolgan holda o'z

so'zлari bilan izohlab berishga o'rgatish o'qituvchilarning burchidir. Ixtiyoriy esda olib qolishning samaradorligi kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning intellektual faolligi darajasi bilan belgilanadi. Intellektual faollik darajasi kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning esda olib qolishini tashkil qilish va boshqarish vositalarini egallash bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqotlarning ko'rsatilishicha, esda olib qolishning samarali usullari o'qishni o'zini nazorat qilish, o'zini tekshirib turish orqali esda olib qolinayotgan materialni qayta tiklashga urinishi bilan almashtirib olib borishdan iboratdir. Kuzatishlar shu narsadan dalolat beradiki, kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar ozmi–ko'pmi mustaqil esda olib qolishning faqat birgina oddiy usullaridan– takrorlash usulidan foydalanadilar. Bolalarda xotiraning individual farqlari ham ko'zga tashlanadi. Bir xil bolalarning xotirasi yuqori darajada tayyorligi sababli ular biror narsani tezda eslab, zarur javoblarni berishlari mumkin. Boshqalari esa sekin o'zlashtiradilar, tez hamda osonlik bilan esga tushirmaydilar. O'qituvchining shoshma–shosharligi, uning sabr-toqat qila olmasligi va o'quvchiga o'ylab ko'rish, fikrlarini bir joyga to'plash uchun imkon bermasligi bolaning bilimlarini noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkin. Bu esa unda o'qituvchiga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi va o'z kuchlariga bo'lган ishonchiga putur yetkazishi mumkin.

Xayolning kichik mакtab o'quvchilarda rivojlanishi. Maktabdagi ta'lim jarayonida bolalar hali o'zлari bevosita idrok qilmagan borliq va hodisalar haqidagi bilimlarini o'zlashtira boshlaydilar. O'quvchilar bunday ma'lumotlarni, albatta xayolning faol faoliyati orqali o'zlashtirib oladilar. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning xayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan barcha bevosita taassurotlar ham xayolni rivojlantiradi. Bu davrda xayolning rivojlanishidagi asosiy fikrlarni (g'oyalarni) ko'rish mumkin. Dastavval ilgari idrok qilingan obrazlarni tasavvur qilish bilan yoki mazkur tasvirga, sxemaga, suratga va shu kabilarga mos keladigan obrazlar yaratish bilan bog'liq bo'lган qayta tiklovchi xayol takomillashadi. Bolalarning tetiklik, yorqinlik va konkretlilikdan mahrum bo'lмаган tasavvurlari sekin–astalik bilan yanada aniqlashadi, o'quv predmetlari, bolalar o'qigan kitoblarning mazmunini borgan sari to'g'ri aks ettiradi, hamda uzuq–yuluqlik va fragmentorlikdan ozod

bo'lib, bir sistemaga birlashadi. O'tmishdagi tajribalardan olingan taassurotlarini qayta ishslash va o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan hamda ularni yangi obrazlarga, kombinatsiyalarga birlashtirishdan iborat yangi obrazlar hosil qilish sifatidagi ijodiy xayol ham yanada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi xayolida voqelikka zid bo'lmanan obrazlar borgan sari ko'proq paydo bo'ladi. Bu esa bolada tanqidiy baholash qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shunday qilib kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xayoli bir tomondan, bevosita tassurot ta'siridan sekin–asta ozod bo'ladi, mana shuning o'zi bola hayotiga ijodiy xarakter bag'ishlaydi. Ikkinci tomondan mazkur o'quvchilar xayolining rivojlanishi ya'ni uning realligi xayol obrazlarini mantiqiy ravishda ob'ektiv olam qonunlari asosida nazorat qilish hamda baholash qobiliyati rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan realligi kuchayadi.

O'qituvchi o'qish materialini o'quvchilarning xayol xususiyatiga muvofiq berilishida o'quvchilarning qaysi bilim boyligiga tayanishi kerakligini mavjud tasavvur boyliklaridan qaysi birini tanlab olishni va undan foydalanishi kerakliligini hamda ularning xayol oqimini qaysi tomonqa qarab o'zgartirishi maqsadga muvofiqroq bo'lishini bilishi kerak. Bunda o'qituvchining epitet va o'xshatishlarni o'z vaqtida to'g'ri ishlatish muhim ahamiyatga egadir. Chunki epitet va o'xshatishlar o'quvchilar ongidagi tasavvurlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ehtiyojkorlik bilan yondashish kerak. Ma'lumki xayol faoliyati tafakkur bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Fikrlash jarayonlari xayol tasavvurlariga tayanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tafakkurning rivojlanishi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurining xususiyatlarini o'rgangan olimlar bolaning tafakkurini quyidagi uch yo'nalishda tadqiq qilganlar: birinchidan tafakkurning yosh davriga xos hususiyati, ikkinchidan uning rivojlanishi, uchinchidan tushunchalarni shakllanish omillari.

Bolalar narsalarning o'zgarmaydigan ba'zi belgilari doimiyligini payqay olmasligi ulardagi tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ta'limning dastlabki bosqichida bolani umumlashtirishi juda sodda bo'ladi va faqat o'xshashlik belgisiga asoslanadi. Keyinchalik esa bola narsa va hodisalarning

tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlarga ajratishi va tasniflashga, narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlar, murakkab ichki bog'lanish va munosabatlarning muhim belgilari bo'yicha umumlashtirishga o'tadi.

I va II sinf o'quvchilari o'quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanib fikrlaydilar: quyosh, momoqaldiroq, avtomobil, qush va boshqalar to'g'risida fikr yuritishda "Quyosh isitadi, yoritadi" "Momoqaldiroq guldiraydi" "Avtomobil yuk tashiydi" "Qush sayraydi" kabi hukmlar chiqaradilar, shuning uchun agar o'rganilayotgan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurati tug'ilsa, darrov ko'rindigan misolga murojat qiladilar.O'quvchilar III sinfga o'tgandan so'ng umumlashtirishdan moddiy dunyodagi voqeylekning eng muhim munosabat va bog'lanishlarni aks ettiruvchi ichki belgilariga tayanadilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ta'lim jarayonida ilmiy tushunchalarni o'zlashtirsalarda oldingi darslarda o'zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarini qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. I va II sinf o'quvchilari uzunlik o'lchov birliklarini o'zlashtirishda ham qiynaladilar, chunki ular uzunlik o'lchovining asosiy belgisi uning uzunligini ajratishni bilmaydilar .

III sinfga o'tganlaridan keyin murakkab fazoviy munosabatlarni egallashga kuchlari yetadi. Chunki ta'lim jarayonida ularning fazo to'g'risidagi tasavvurlari, tushunchalari kun sayin reja, masshtab, yer shari va qator shartli belgilar haqidagi bilimlar bilan boyib boradi. O'quvchilarning bilim doirasi kengaygani sari ular qat'iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko'cha boshlaydilar narsa va hodisalarning turli xususiyatlariga egaligini voqelik atigi bir harakatdan bir sababdan emas, balki ko'p sabablardan paydo bo'lishligini anglash bosqichiga ko'tariladilar. Taxminiy hukmlar II sinfdan boshlab paydo bo'ladi. III sinfdan boshlab o'quvchilarda tushuncha va hukm rivojlanishi bilan birga turli narsa va hodisalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish ham o'zgarib boradi. O'quvchilarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa chiqarish avval bevosita idrok qilinayotgan narsalar asosida vujudga keladi. U bevosita kuzatish, idrok qilish jarayonida narsa va hodisalarning munosabatini

bog’lanishini aks ettiradigan xulosa chiqarish bo’lib, bolaning tafakkurida asosiy o’rin egallaydi. Chunki bunda yaqqol–obrazli tafakkurga tayanib xulosa chiqariladi. Keyinchalik mavhum shart-sharoitlardan vujudga keladigan xulosa chiqarish turi paydo bo’ladi.

Ta’lim jarayonida tafakkurning analistik – sintetik faoliyati muhim rol o’ynaydi. O’quvchilar tahlil qilishi jarayonida yahlit munosabatni yoki narsani bo’laklarga ajratib ularning, uzviy bog’lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya’ni bo’laklarning yaxlit buyumga bog’lanishini aniqlaydi. O’quvchilar tahlil va sintezni, taqqoslashni mashq qilish orqali narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy bilishlaridan ajratishni o’rganadilar va shu tariqa o’zlarining mavxumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining umumlashtirish faoliyatini rivojlanish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma’lumki, yil oxiriga borib, bolalarning o’zlari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilariga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar, atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi. Bolalarda mavhumlashtirish va umumlashtirish usullarini o’rgatish bolalar tafakkurining rivojini yangi bosqichga ko’taradi. Ularning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usularini qo’llashdan o’ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o’smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi. Bolalar tafakkurida ma’lum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutloqo mosligini ko’rsatadi. Ta’lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini, mustaqil fikirlashni o’rgatish kichik maktab yoshdagi o’quvchilarni kamol toptirish garovidir.

Kichik maktab yoshdagi o’quvchilarda nutiqning rivojlanishi. Maktabga kelish arafasida bolaning so’z boyligi o’z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o’z nutqida 500–600 so’zni ishlatsa, olti–yoshli bola 3000–7000 so’zni ishlatadi. Boshlang’ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe’l, sifat, son va bog’lovchilardan iborat bo’ladi. Bu yoshdagi bolalar o’z nutqlarida qaysi so’zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6–7 yoshli bola o’z jumlalarini

murakkab gramatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab boradilar va nutqni o'zlashtirish ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7–9 yoshli bolalarning o'ziga hos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalg qilishini ham biladilar. Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jumlalarini to'g'ri tizimli va so'zlarni to'g'ri yozilgan ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yoza olmasligini bilishi, uchun to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rgatishi zarur. Yozma nutqni egallashi asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada hali o'zi yozgan fikrlarni so'z va harflarni nazorat etishi malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash fikrini bayon etish uchun malumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jumlalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'irlash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Maktabdagagi o'qish o'quvchilar nutqining mazmuniga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning lug'ati yangidan-yangi so'zlar va tushunchalar bilan boyib, nutqi esa maxsus so'zlar, terminlar va yangi iboralar bilan to'lib boradi. Har xil o'quvchi predmetlari o'quv nutqi oldiga yangi talablar qo'ydi. Matematikada qisqa aniq nutq kerak bo'lsa, o'quv darslarida o'quvchilarga keng, obrazli iboralar bilan to'ldirilgan gaplar kerak bo'ladi. Bolalar monologik nutqdan foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch keladalar. Bolalarning og'zaki va yozma nutqlari o'rtasida katta farq borligini ko'ramiz. Bu farq shundan iboratki, maktabgacha yoshidagi bolalar bir-birlari bilan og'zaki nutq yordamida munosabatda bo'ladilar, yozma nutq esa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun yangi notanish sohadir. Shu sababli yozma nutqni o'quvchilar qiyinchilik bilan egallaydilar. O'quvchilar nutqini

takomillashtirish uchun aktiv nutq bilan doimiy ravishda mashq qilish talab etiladi, buni ta’lim jarayonida har doim esda tutish kerak.

Kichik mакtab yoshidagi o’quvchilarda irodaviy-emotsional holatlar. Maktabdagi ta’lim jarayonida bilimlarni egallash o’quvchidan irodaviy zo’r berishni talab qiladi. Chunki o’qish materiali har qachon ham emotsional xarakterga ega bo’lavermaydi, uning ma’lum qismi zerikarli va zavqsiz bo’lishi mumkin. Mana shunday material o’quvchidan irodaviy zo’r berishni talab qiladi. Ma’lumki, I sinf o’quvchilarida diqqatning rivojlanishi uzoq davom etmaydi, lekin o’qish materialini o’qishdagi irodaviy zo’r berishning takrorlanishi ta’siri natijasida iroda asta-sekin rivojiana boradi, mustahkamlanadi: iroda o’quv materialini o’zlashtirishda katta o’rin egallaydi. O’quvchilarga ko’p narsalarni o’qib olishga, darsda va uyda ko’p narsalarni esda qoldirishga to’g’ri keladi, ko’pincha o’quvchiga she’r va grammatika qoidalarini yodlash topshiriladi. Mana shu hollarning barchasida o’quvchilardan iroda talab qilinadi. Ixtiyoriy aqliy jarayonlarining muvaffaqiyatli bo’lishi o’quvchining irodasiga bog’liqdir, aqliy jarayonlar iroda bilan birgalikda rivojlanadi. Shu vaqtning o’zida iordaning o’zi ham faoliyatda, o’qish jarayonida tarkib topa boradi. Iordaning o’sishida maktabdagi intizomga axloq qoidalariga rioya qilishning zarurligi katta ahamiyatga ega. Maktabda o’rnatilgan intizom va tartib o’quvchilarda ixtiyorsiz harakatlarning vujudga kelishiga yo’l qo’ymaydi. O’quvchining o’zida mana shu ixtiyorsiz faolikka undab turishi uchun, undan irodaviy zo’r berish talab qilinadi. Irodaviy akt faol harakatlardagina emas, balki biror harakatni qilishdan o’zini tiyishda ham ifodalanishi mumkin. Iordaning asab- fiziologik asoslari qo’zg’alishi va tormozlanish jarayonlari muvozanatligining taraqqiy etishi bilan bog’liqdir. Bu asab jarayonlari muvozanatligining o’sishiga sinfdagi o’quvchilarning jamoasi bilan o’rnatilgan o’zaro normal munosabat ham ta’sir etadi. Qo’zg’alish va tormorlanish jarayonlari muvozanatligining, ma’lum maqsadga qaratilgan ongli harakat tariqasida iordaning o’sishi, biror qiyinchilikni yechish uchun irodaviy zo’r berish - bularning barchasi asab tizimi tez qo’zg’aluvchi bola uchun qiyin jarayondir. Chunki bu yoshdagi bolalarda qo’zg’aluvchanlik kuchli bo’ladi, ular o’z harakatlarida emotsiyonallik va impulsivlikka tez berilib ketadilar. Kichik

yoshdagi o'quvchilar uyga berilgan topshiriqlarni ko'proq o'qituvchilarning maqtoviga sazovor bo'lish maqsadida bajarishga intiladilar. III – IV sinflarda esa o'quvchilar, ular bilan olib borilgan tarbiyaviy ishlar natijasida, o'qishga ijtimoiy ahamiyat bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda irodaviy harakatlarning motivi va bu harakatdan ko'zda tutilgan maqsad juda beqaror bo'ladi. III – IV sinf o'quvchilari o'z mulohazalarida burch hissiga amal qiladilar. Yaxshi tarbiyalangan bolalardagi iroda talab qilinadigan harakatlarida burch xissi katta rol o'ynay boshlaydi. Tirishqoq o'quvchilarda burch va javobgarlik xislari kuchli namoyon bo'ladi. Bu xislар уларда irodani o'stirishi vositalaridan biridir. Ba'zan burch xissining barqaror ko'rinishi beqarorlikka o'tib ketadi. Bu ko'pincha bolalarda uzoq vaqt irodaviy zo'r berish natijasida toliqqanda ro'y beradi. O'quvchida irodaning o'sishi uning kichik maktab yoshidagi xarakterning irodaviy xislatlari tarkib topishining boshlanishidir. Bolalarning o'qish faoliyati va o'sishidagi yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lган o'ziga xos tipik xislatlar ham paydo bo'ladi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchida qat'iylik kabi muhim shaxs xislati shakllanadi. Yozish, o'qish va sanash kabi yangi ta'lim malakalarining paydo bo'lishi iroda xislatlarining shakllanishiga yordam beradi. Shaxsning muhim xislati bo'lган qat'iylik III sinf o'quvchilarining ko'pchilik qismiga xosdir. III sinf o'quvchilari masalalarni mustaqil yechgan holda, qanday qilib bo'lmasin maqsadga erishadilar. Bolalar orasida o'z harakatlarini to'g'ri yoki noto'g'rilinga ishonmaydiganlar uchraydi. Ular o'zlari uchun notanish yangi sharoitga yangi jamoaga tushib qolganlarida ayniqsa, qo'rqoq bo'ladi. Bunga bolaning o'z kuchiga ishonmasligi, o'z harakatlarida tez – tez muvaffaqiyatsizlikka uchrab turishi ham sabab bo'lishi mumkin. Mana shuning uchun ham, bola ko'proq irodaviy xislatlarini o'stiradigan va mustahkamlaydigan sharoitda bo'lishi, vazifalarni bajarishi muhimdir. Qiyinchiliklarni va to'siqlarni o'quvchilar yenga oladigan bo'lishi kerak, o'quvchi bu qiyinchiliklarni bartaraf etib, erishgan yutuqlaridan quvonsin. Bolaning kuchi yetmaydigan uning yosh xususiyatiga to'g'ri kelmaydigan to'siqlar bola oldida berk ko'cha paydo qiladi va bola irodasni chiniqtirish o'miga zaiflashtiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xis-

tuyg'ular ancha vazminlashib kattalarning tuyg'ulariga ancha o'xshab qoladi. Ammo tuyg'ularning o'z xarakteriga butunlay qarama – qarshi holda keskin o'zgarishini ham kuzatish mumkin. Bu holatlar o'qish faoliyatlaridan birortasining yoki bir xildagi mehnat va o'yinining uzoq vaqt davom etib, ta'sir etishi natijasida paydo bo'ladi. Kichik yoshidagi o'quvchilarga xos bo'lgan juda ko'p emotsional kechinmalar mustaxkamlanib, hatto xarakter xislatlariga ham aylanadi. O'quvchining hali kichik paytida, tarkib topgan xarakter xislatlari katta o'zgarishlarga uchraydi. Tasavvur, tushuncha, xohish va his-tuyg'ular, so'zsiz, o'zgara boradi yoki ular ijobiy xislatlar darajasiga ko'tarilib, mustahkamlanishi yoki aksincha yo'qolib ketishi mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki, bunda bolalarda shaxsning kichik yoshda –o'quvchiligidagi tarkib topgan ijobiy xislatlar tobora boyib va mustahkamlanib borsin.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda individual xislatlar. O'quvchilardagi temperament va xarakter xususiyatlari bir-biriga juda ham yaqindan bog'liq bo'lib ular o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlari jarayonida tarbiya ta'siri bilan o'zgarib, taraqqiy qilib boradi. Bola temperamentini taraqqiy ettirish uchun, avvalo, uning ijobiy va salbiy, kuchli va zaif tomonlariga e'tibor berilishi kerak. Tajribali o'qituvchi o'z o'quvchilarining temperamentidagi individual xususiyatlarni aniqlab oladi va ular bilan qilinadigan ishni tegishli tarzda yo'lga qo'yadi. Temperament tipi tug'ma sifat bo'lganligi sababli temperamentni tarbiyalash ishini iloji boricha ertaroq boshlash kerak. Bunday ish uchun kichik mакtab yoshi juda qulay davrdir. Maktabda to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiyaviy ish bolalar temperamentidagi ba'zi salbiy xususiyatlarni tuzatadi. Xoleriklarni ancha o'zini tutgan, sangviniklarni o'zlariga ancha ishonadigan va atrofdagilar bilan ko'proq muomala qiladigan bo'lib qoladilar. Maktab intizomi shuningdek, jismoniy tarbiya va boshqa sog'lomlashtirish tadbirlari temperamentni hamma tiplariga foydali ta'sir ko'rsatadi. Temperament ustida ishslash odamda o'z temperamentning qo'liga aylanib qolmaslik, balki uni idora qila bilish imkoniyatlarini beradigan iroda va mustaxkam xarakterni tarbiyalash bilan uzviy ravishda bog'lanib ketadi.

Kichik mакtab yoshdagi davrida xarakter endigina tarkib topa boshlaydi. Bolalardagi xarakteriologik xatti–harakatlar o’zining beqarorligi va qarama–qarshiligi bilan farq qilishi mumkin. Shu munosabat bilan ba’zan ulardagи o’tkinchi psixik holatlarni xato ravishda xarakter xislatiga qo’shib yuborish mumkin. Bu davrda o’quvchilarning xatti – harakatlarida oliv asab faoliyatining tipologik xususiyatlari ancha aniq va yorqin namoyon bo’ladi. Bu xususiyatlар keyinchalik borib odatda hayotda tarkib topgan xatti – harakatlarning odatdagи shakllari bilan qorishadi. Uyatchanlik, tortinchoqlik asab tizimi kuchsizligining bevosita ko’rinishida bo’lishi mumkin. Impulsivlik, o’zini tuta bilmaslik–tormozlanish jarayonining kuchsizligi natijasida namoyon bo’lishi mumkin. Reaktsiyaning bir faoliyatdan boshqa bir faoliyatdan ko’chishning sustligi–asab tizimining kam harakatchanligi natijasida namoyon bo’lishi mumkin. Kichik mакtab yoshidagi o’quvchi xarakteri o’zining ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi. Dastavval ular xarakterninng impulsivligi (beixtiyorliligi) ularning o’ylamasdan va barcha xolatlarini hisobga olmay bevosita impulslar, mayllar va tasodifiy sabablar ta’siri ostida darxol harakat qilishga moyilligi yosh munosabat bilan xatti – harakatlarni iroda orqali boshqarishning sustligi va faol tashqi vaziyatga bo’lgan ehtiyojdir. Shuning uchun kichik mакtab yoshdagi o’quvchilar tomonidan mакtabning ichki tartibini buzish hodisalarini intizomsizlik deb tushuntirib bo’lmaydi.

Kichik mакtab yoshdagi o’quvchilar xarakteridagi ko’p uchraydigan kamchiliklar, ya’ni ularning injiqligi va qaysarligi oila tarbiyasidagi nuqsonlar oqibatidir. Bunday bola o’zining barcha talab va xohishlari qondirilishiga odatlanib qolgan bo’ladi. Bolalarning xarakteriga xos yosh xususiyatlariga mehribonlik, bilimga qiziquvchanlik, to’g’rilik ishonuvchanlik kabi ijobjiy xislatlar ham kiradi. Kichik mакtab yoshdagi o’quvchilarning muhim yosh xususiyatlaridan biri taqlidchanlikdir. Ular katta yoshli kishilarga va ba’zi tengqurlariga, shuning bilan birga yaxshi ko’rgan kitoblari va kinofilmlardagi qaxramonlarga taqlid qilishga intiladilar.

Kichik mакtab yoshdagi davr xarakterining ijobjiy xislatlarini tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga egadir. O’quvchilarning tez ko’nikuvchanligi va

ma'lum darajada ta'sirchanligi, ulardagi ishonuvchanlik, taqlid qilishga moyillik, o'qituvchining ular orasida juda katta obro'si borligi tarbiyaviy ishning asosini tashkil qiladi va o'qituvchi o'z ishi faoliyatida bularga amal qilishi zarur. III sinf ta'limning boshlariga kelib tobora ortib borayotgan talablar ta'siri va to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya ishlarining ta'siri bilan kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, tirishqoqlik, intizomlilik, hamda batartiblilik tarkib topadi. Sekin—astalik bilan o'z xatti- harakatlarini irodaviy tomondan boshqarish qobiliyati rivojlanadi. O'zini tuta bilish va o'z xatti -harakatlarini nazorat qilish hamda bevosita turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik malakasi yuzaga keladi, qat'iylik va qiyinchiliklarni yengish malakasi o'sadi. O'quvchilarda III – IV sinflardan boshlab burch hissini anglash sezilarli ravishda namoyon bo'la boshlaydi. Ammo bu yoshdagi burch hissi hali yetarli darajada barqaror va batamom mustaqil bo'lmaydi. Maktab ta'limi boshidan bola ikki tomonlama ham oilada, ham maktabda tarbiyaviy ta'sir ostida bo'ladi. Shu sababli tarbiyaviy ta'sirlarning, bir xil yo'nalishda bo'lishi komil shaxsni tarbiyalashga asos bo'ladi. Maktab va o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga ta'lim berishgina emas, balki ularning qobiliyatlarini ham o'stirishdir. Qobiliyatlarni o'stirishda o'quv ishining ahamiyati nihoyatda kattadir. Bolalardagi qobiliyatlarning borligi haqida, avvalo ularning qanday o'qishlariga o'quv materialini qanday tushunishlariga, eslab qolishlariga, o'z bilimlarini qo'llay bilishlariga, masalalarni yechishda qanchalik puxta fikr yuritishlariga, yozma va og'zaki nutqni qanchalik egallaganliklariga qarab xukm chiqarish mumkin. Quydagi sifatlar: ziyraklik, tez va puxta eslab qolish, o'ylay olish, topqirlik, rivojlangan hayol, ishda tashabbuskorlik, mustaqillik va uning mahsuldarligi bolalar qobiliyatlarining ba'zi bir ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin. O'qituvchi bolalar bilan har bir ishda tashabbus va ijodkorlik ko'rsatkichlarida ularni har jihatdan rag'batlantirib turish kerak. O'quvchi qiynalib qolganda unga yordam berishga shoshilish yaramaydi, qiyinchiliklarni asta – sekin oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi oldiga qo'yilgan vazifalar undan aqlni zo'r berib ishlatishni talab etishi darkor. Biroq maqtab o'quvchilariga individual tarzda yondoshish, ulardagi tafovutlarni hisobga olish, ularga differentsiatsiyalangan topshiriqlar berish zarur. Kuchli o'quvchilarning darsda

zerikib qolmasliklari va uyda yetarlicha ish bilan band bo'lishlari uchun ularga qo'shimcha ish berish zarur. Bo'sh o'quvchilarga ko'proq yordam berish, ularning oldiga qo'llaridan keladigan talablar qo'yish, ularga muvaffaqiyat bilan bajara oladigan yengillashtirilgan turdag'i topshiriqlarni berish kerak. Bunday o'quvchilarni tez-tez maqtal turish, ishda erishgan arzimagan yutuqlarini ham nazarda tutish lozim bo'ladi, bu ularni o'z kuchlariga ishonadigan va o'qishni istaydigan qiladi. Ota-onalar va katta bolalarni bo'sh o'quvchilarga muntazam ravishda yordam ko'rsatish ishiga jalg etish darkor. Odatda bunday tadbirlar yaxshi yordam beradi, bolalar boshlang'ich sinfni mavaffaqiyat bilan tugallaydilar va o'rta maktabda qoniqarli o'qiydilar. Iste'dodli o'quvchilarga nisbatan ehtiyoj bo'lishi ularni haddan tashqari maqtal yubormaslik ularda o'zbilarmonlik, manmanlik, kekkayish xislatlarini tarbiyamaslik uchun ularning ajoyib bolalar ekanliklarini ta'kidlab o'tmaslik kerak.

Iste'dodli bola odatda o'zining boshqalardan qobiliyatliroq ekanligini tushunadi, lekin shu munosabat bilan unda ish uchun yuksak ma'suliyat hissini ham tarbiyalash lozim.

Kichik mакtab yoshdag'i ba'zi bolalar faoliyatining biror turiga: nafis san'at, muzikaga qobiliyatli ekanliklarini ko'rsatadilar. Bunday qobiliyatlarni yanada o'stirishga yordamlashish darkor, lekin bu shaxsning boshqa tomonlari hisobiga bo'lmasligi kerak. Shuni unutmaslik lozimki, maktabning vazifasi bolani har tomonlama o'stirish, uning ma'naviy va jismoniy kuchlarini avj oldirishdir.

Kichik mакtab yoshida o'quvchilar shaxsining tarkib topishi. O'quv faoliyati kichik mакtab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi va bola shaxsi shakllanadi. Yetakchi bo'lган o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lган shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik mакtab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga shuningdek tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Bu yoshdag'i bolalar doimiy ravishda o'zlari

erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi psixik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida boshqa davrdan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi bergen fikr va baholariga qarab, o'zlariga-o'zlar baho beradilar. O'quvchining o'z-o'ziga beradigan bahosi, asosan to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlardagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha –yuqori, adekvat- mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lган ishonuvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik mакtab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishni belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarini yuzaga kelishi va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Bolalarda mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq bo'lsa, unda asta- sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillika undash, unda ba'zi salbiy xususiyatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarini, asosan kimlargadir taqlid qilgan xolda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek shunday bir ijtimoiy psixik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari kattalar va boshqa odamlarning lideri deb xis qilsin, ana shu xis bolada mustahkam bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. 7-11 yoshli bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zini anglashi ham jadal rivoj beradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davda bolalar o'zlarining ismlarini tengdoshlari va atrofdagilar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat

qiladilar. Bola o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashda ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa qizlar o'zlarining yuz tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorini va faoliyatini o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishning qaror topishiga yordam beradi, o'quvchi hulq-atvorini motivi ham o'zgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy histuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'yin faoliyati. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yetakchi turi o'qish hisoblanib, ularning hayotida mehnat esa kamroq o'rinn tutadi. Bu yoshdagi o'quvchilar harakat bilan bog'liq bo'lgan o'yinlarni yaxshi ko'radilar. Bu o'yinlar harakatlarning uyg'unlashuvini takomillashtiradi, kuch- quvvati va chaqqonligini o'stiradi, ichki organlarning ishini nafas olish, qon aylanishini yaxshilaydi, bolalar sog'lig'ini mustahkamlaydi. O'yin idrok, diqqat, xayol, qiziqish, taffakkurni o'stirishga yordam beradi, tashabbus va aktivlikni o'stirishga ko'maklashadi, o'yin faoliyatini ularsiz tasavvur etib bo'lmaydigan ijobiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, o'yin o'quvchining o'qish jarayonida aqliy ishdan juda yaxshi dam olishi uchun xizmat qiladi. O'yin bolalarni hayotga taylorlaydi, xolbuki ulardan birortasi ham o'yinning bu haqidagi ahamiyatini o'ylamaydi. Bolalar o'zlarini birdan-bir ehtiyojlarini qondirish, xursand bo'lish uchun o'ynaydilar. O'yin jarayonida bolalar muayyan ishlarni bajaradilar. Ular imorat qiladilar, sayohat qiladilar, ularni davolaydilar, birlariga ish o'rgatadilar, xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadilar. Vatanni dushmanlardan himoya qiladilar, qaxramonlik ko'rsatadilar va hokzo. O'yindan ko'zlanadigan maqsad o'yin natijasi emas, o'yin faoliyatining o'zidir. Ko'pgina o'yinlarda bir kishi emas, balki ko'pchilik ishtirok etadi. Bu bolalarda jamoatchilik xissini tarbiyalashga yordam beradi. Ular birgalikda, uyushgan xolda harakat qilishni o'rganadilar goh boshqalarga boshchilik qiladilar, goh o'zlari ularga bo'ysunadilar, muayyan qoidalarga amal qilib, ularni bajarilishini qattiq nazorat

qiladilar. Bularning hammasi irodani tarbiyalashga, intizomga odatlanishga imkon beradi, o'z xatti- harakatlari va xulq -atvori uchun javobgarlik hissini yuzaga keltiradi, bola shaxsining ma'naviy sifatlarini tarkib toptirishga yordam beradi, ma'lumki har bir o'yinda bolalar o'yinni o'ynaladigan muayyan shartlar haqida kelishib oladilar, bordi-yu biror bola ana shu majburiyatni buzsa, uni uyindan chiqarib yuboradilar yoki o'yinni davom ettirishdan bosh tortadilar. O'yinlarning ko'p qismi musobaqalar bilan bog'liq, bu narsa bolaning jismoniy va psixik jihatidan zo'r berishni kuchaytiradi, kamol topishga yordamlashadi.

O'yinning amaliy natijalari emas, balki uning qatnashchilarga baxsh etadigan mammuniyat o'yin faoliyati uchun motivlar bo'lib xizmat qiladi. O'yinda ko'p narsa xayol asosida quriladi. Bolalar mutlaqo real buyumlarsiz yoki uncha-muncha buyumlardan foydalangan xolda o'ynashlari mumkin. Shuning uchun o'ylab yuzaga keltirilgan vaziyatlar real va ko'pincha kuchli ta'sir etuvchi xis-tuyg'ular bo'lishi mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilarning o'yinlari juda xilma-xil bo'ladi.

1. Harakatli o'yinlar: Harakatli o'yinlarning ba'zilari sport o'yinlarga yaqinroq bo'ladi. Bu o'yinlar sog'liq uchun juda foydalidir. Bunday o'yinlarning ko'plarida shaxsiy birinchilik yoki jamoatchilik birinchiligi uchun kurashiladi. Ularda jismoniy sifatlardan tashqari shaxsning jasurlik, o'zini qo'lga ola bilish, qa'tiyatlilik singari xususiyatlarini o'stiradi.

2. Rollarga bo'linib o'ynaydigan o'yinlar. Bu o'yinlar bolalar kuzatadigan yo kattalardan eshitadigan hodisa va jarayonlarni aks ettiradi. Bu o'yinlarda har bir bola o'ziga muayyan rolni, masalan vrach, o'qituvchi, o't o'chiruvchi rolini oladi va tegishli faoliyat turini tasvirlab o'ynaydi. Ba'zan o'yin syujeti oldindan belgilab qo'yiladi, voqeа va harakatlar muayyan reja asosida avj olib boradi. Boshlang'ich sinflarda ham ular xali ko'g'irchoq o'ynaydilar, uni allalaydilar, davolaydilar, unga ta'lim beradilar. Ba'zan ular o'yinchoqlarsiz ham o'ynayveradilar, bunda ko'pincha qo'g'irchoq o'rnini ukalari va singillari egallaydi, o'zlari esa onalik burchini ado etgan bo'ladilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarda texnikaga qiziqish paydo bo'ladi. Ularning o'zlari samolyotlar, avtomashinalar yasab ularni o'ynaydilar. Qizlar o'yinlarida maishiy xarakterdagи ishlar bilan shug'ullanishni

yoqtiradilar: qo'g'irchoq uchun kiyim-kechak tikadilar, stol tuzaydilar, idish-tovoqni, qo'g'irchoq uchun tikilgan kiyim-kechakni yuvadilar va dazmollab qo'yadilar. Bunga o'xhash o'yinlar keyinchalik asta-sekin mehnat faoliyatiga aylanadi, stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar: bu o'yinlardan ba'zilari bilishga qiziqishni oshirish va aqliy kamolotni o'stirish uchun juda foydalidir. Rasmi va har-xil topishmoqlar, rebuslar, o'ylashni talab qiladigan o'yinlar kabilar kiradi. Ayni shu vaqtda ko'pchilik bolalar shashka, shaxmat o'ynay boshlaydilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning o'yin faoliyatidan bir chetda turmasliklari kerak. O'qituvchilar tanaffus paytida o'yinlarni kuzatib turadilar, ba'zan esa bolalarning dam olishlarini yo'lga qo'yib, o'yinlarda o'zilari ham ishtirok etadilar. O'qituvchining roli birinchi navbatda, bolalarga foydali o'yinlarga qiziqish uyg'otish, zararli o'yinlar o'ynalishiga, bolalarning urushib qolishlariga yo'l qo'ymaslik va hokazolardan iborat. Lekin o'yinga zo'r nazorat, ehtiyyotkorlik bilan rahbarlik qilish lozim. Bolalar mustaqilligini, ularni mustaqillikka bo'lgan tabiiy intilishlarini bo'g'ish yaramaydi: bolalarni oqilona o'yinlar o'ylab topishlarini va o'zilari uchun o'yinda ko'p imkoniyatlar yaratadigan ijodiyotning boshqa formalarini rag'batlantirib borish darkor.

Kichik mакtab o'quvchilarida mehnat faoliyati. Bolalar maktabga borganlarida mehnat uchun hali jismoniy va texnik jixatdan yetarlicha tayorgarlik ko'rmagan bo'ladilar. Ular hali o'z harakatlarini hamisha ham qismlarga ajratib va bir-biriga muvofiqlashtira olmaydilar, ularda ko'z bilan qo'l yetarlicha bir-biriga muvofiq tarzda ishlay olmaydi, kinestetik (muskul) sezgilari uncha o'smagan bo'ladi. Ammo 9 yoshga kirganda bolaning uncha murakkab bo'lмаган ishlarga jismoniy tayorgarligi ancha ortadi.

Boshlang'ich sinflarda bolalar mehnat faoliyatiga taylorlanadilar. Ular 1-sinfdan boshlab qog'oz, kartondan juda oddiy buyumlar tayyorlaydilar, shuni ham aytish kerakki, bu mashg'ulotlarga ular juda qiziqadilar. Birinchi sinf o'quvchilari ish jarayonining o'zi bilan mehnat natijalariga qaraganda ko'proq qiziqadilar, biroq keyinchalik ular o'z ishlarining sifatiga ham qiziqib qaraydigan bo'ladilar. Ular o'zilari yasagan buyumlarni namuna bilan taqqoslab ko'radilar va ishni aniq bajarishga intiladilar. Agar birinchi sinfda bolalar o'z xatolaridan ko'ra ko'proq

o'rtoqlarining ishdagi kamchiliklarini sezsalar ikkinchi va uchinchi o'quv yilida o'z mehnatlari mahsuliga ham ancha tanqidiy munosabatda bo'ladilar, uning sifatini baholashga ob'ektivroq yondoshadilar. Qo'lidan keladigan mehnat mashg'ulotlari bolalarda avvalo bu mashg'ulotlar harakatlanish bilan bog'liq bo'lgani uchun quvonch xislarini yuzaga keltiradi. Lekin tez orada maqsadsiz mehnat kichik yoshdagi o'quvchini qiziqtirmay qo'yadi. Agar u masalan tayyorlagan o'yinchoqlardan eng yaxshilari bolalar bog'chasidagi kichkintoylargacha berilishini bilsa o'z ishiga zo'r mas'uliyat bilan kirishib ketadi va uni yaxshilab bajarish uchun bor kuchini ishga soladi.

O'qishning dastlabki yillaridanoq mehnat bolalarda shaxsning ehtiyoji tariqasida yuzaga keladi. Bunda kattalarga taqlid qilish ham foydali bo'lishi istagi ham katta rol o'ynaydi. Bu jixatdan kichik yoshdagi o'quvchining maishiy mehnati, oilada o'zidan kichik bolalarga qarab turishi, sinfni yig'ishtirishda ishtirok etishi, gullar va tirik burchak jonvorlariga qarashi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarni faqat ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilbgina qolmasdan, ota-onalar bolalarda mehnatga mehr-muhabbat hamda odatlanishni qunt bilan tarbiyalab borishlari uchun ularga ta'sir ko'rsatib turishi ham kerak. Bolalarning mehnat tarbiyasiga sinf jamoasi ham ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi bir o'quvchining ishiga baho berar ekan, umuman, butun sinfning fikriga murojat etadi. Bundan tashqari, ko'pgina ishlar jamoat tarzda bajariladi.

O'qituvchi bolalarda ijtimoiy foydali mehnatga mehr-muhabbat va ishlay olish qobiliyatini tarbiyalashda ularni qiziqtirishga intiladi. Biroq ayni vaqtida o'quvchilarni ayrim mehnat operatsiyalarini bajarishda uyushqoqlik va izchillikka o'rgatish zarur. Bolalar yangi ishga berilib kirishadilar-u, lekin uni nimadan boshlash kerakligi, qanday material olish, qanday mehnat qurollaridan foydalanish va xokazolar haqida o'ylab o'tirmaydi. Ular o'z ishlarini rejalashtirishga, ishni belgilangan muddatda tugallash uchun vaqtlarini to'g'ri taqsimlashga uncha qodir emaslar. Shunday ham bo'ladiki, bolalar ishda tartibga rioya qilmay, hamma narsani sochib tashlaydilar, natijada mehnat o'ngidan kelmaydi, muvaffaqiyat ko'zga ko'rinxay qoladi. Bunday xollarda o'qituvchi bolalarga o'z mehnatlarini durustroq yo'lga qo'yish, uni o'ylab rejalashtirishda yordamlashish kerak. Agar ish

yurishib ketadigan bo'lsa, unda o'quvchilarda o'z kuchlariga ishonish hissi va uni oxrigacha muvaffaqiyat bilan yetkazish istagi paydo bo'ladi. O'qituvchi bolalarga boshchilik qilar ekan, ularni mustaqillikka o'rgatishi lozim. Tashabbus, ijodiyot, oqilona ravishda o'ylab olingen ishlar rag'batlantirilib borilishi darkor.

## **1.2 § Shaxs kreativligi bo'yicha nazariy manbalar tahlili**

Kreativlikni o'rganishga ham juda ko'p tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lib, ular nazariy va amaliy samarali natijalarni bergan. Lekin xozirgacha kreativlikning yahlit, mukammal ishlab chiqilgan nazariyasi mavjud emas. Shu tufayli kreativlikni tushunish bo'yicha yagona tushuncha va mazkur qobiliyatni o'rganishga qaratilgan va barcha olimlar tomonidan qabul qilingan diagnostik metod ishlab chiqilmagan.

"Kreativlik" so'zini ilk bor 1922 yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama bilan orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkur dan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

*Kreativlik* (lot. *creatio* – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqeа, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi.

Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalari taqqoslanganangan ta'diqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalari bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. U kreativlikni divergent tafakkurga tenglashtirgan.

*Divergent tafakkur* deganda muammoni ko'p miqdorda asosli, odatdan tashqari, original yechimlarini keltirishni tushunamiz.

Rossiyalik olma D.B. Bogoyavlenskaya divergent tafakkur sifatida faqat "kenglikda fikrlash", ya'ni ob'ektni boshqa belgilarini ko'ra olish qobiliyatini tushunadi.

M. A. Xolodnaya ham kreativlikni divergent tafakkur deb ataydi.

S. Mednik fikriga ko'ra, ijodiy jarayonda ham divergent ham konvergent tafakkur turlari o'zaro bog'liq xolda faoliyat ko'rsatadilar.

Sternberg va Lyubartlarning kreativlik nazariyalarida asosiy tushuncha - "muammoni yechish" tushunchasidir. Kreativ jarayon asosida muammoga sezgirlik xisoblanadi. Ular intellektual qobiliyat va kreativlikni tenglashtirmaydilar. Lekin, shu bilan birgalikda, ularning fikriga ko'ra, intellektual

qobiliyatlar, bilim, motiv va shaxs xususiyatlari ijodiy faoliyat uchun turtki xisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, olimlar fikrlarida yakdillik mavjud emas. Bu esa kreativlikni tushunshni qiyinlashtirmoqda. Shuning uchun kreativlik haqida so'z yuritilayotganda, kreativlik – bu qobiliyatmi yoki shaxs sifatimi aniqlik kiritish lozim xisoblanadi.

Ma'lumki "kreativlik" so'zi asosan jonsiz narsa va xodisalarga taaluqli bo'lib ularni tadqiqot natijalari shaxslararo munosabatlar sohasiga ko'chirilish xolatlarini kuzatish mumkin. Bu esa taniqli olim-metodolog B.F.Lomovga ko'ra, bunday ko'chirishlar tagida xech qanday asos yo'q. Bu ma'noda ijtimoiy kreativlik haqida aloxida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik tushunchasiga nisbatan bir-biriga zid bo'lgan quyidagi turli xil qarashlar majud. Bular:

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.
2. Kreativlik – bu insonning o'ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.
4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.
5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.
6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyadir.

Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

1. Psixolog olimlar tomonidan kreativlikning qo'yidagi ikkita komponenti aniqlangan. Bular:

A) Shaxsiy mazmun. Ya’ni har bir insonning shaxsiy hayotining umumiyligi mazmuni. Bu mazmun madaniyatshunoslik bilan bog’liq. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shug’ullanar ekan, u kreativlik, ya’ni yaratuvchanlik munosabatda bo’ladi va uni iloji boricha chiroyli, insonlarni o’ziga tortishga yo’naltiriladi. Bu esa o’z navbatida insoniyatning madaniyatga yo’naltirilganligidir.

B) Signifikatsion ko’nikmalar.

2. Kreativlikni tashxis qilish psixosemiotik tahlil bilan bog’liq Kreativlikning darajasini aniqlash qo’yidagilar bilan belgilanadi:
  - shaxsiy ma’noning rivojlanish darajasi;
  - verballi belgilar sistemasini yaratish
3. Ta’lim olish kengligi ikkinchi semiotik tizimni tashkil etadi. Uning kreativlikni rivojlantirishga ta’siri gomomorfizik madaniyat bilan bog’liq.
4. Psixologiya fanida kreativlik bilan bog’liq bo’lgan qo’yidagi jihatlarni aniqlashga doir qator metodlar tavsiya etilgan. Lekin bu metodlar bevosita kreativlikni emas, balki kreativlikni belgilab beruvchi muayyan jihatlarni aniqlashga qaratilgandir.
5. Kreativlik shaxsiy mazmun va unga doir belgilarning ob’ektivligi bilan belgilanadi.
6. Kreativlikning rivojlanishi uning komponentlerining rivojlanishiga bog’liq. Bular: shaxsiy mazmun va signifikatsion ko’nikmalar.
7. Kreativlikni tashxis qilish - ijodiy faoliyatning maxsulotining ko’satkichlari bilan bog’liq.
8. Shu bilan bir qatorda psixolog olimlar tomonidan o’quvchilarning insho yozishdagi kreativligi psixosemiotik jihatdan tahlil etilgan. Buni biz psixolog olim I.M. Kishtomova tomonidan olib borilgan ilmiy-tatqiqotlarida ko’rishimiz mumkin.

Uning «Problema kreativnosti shkol’nikov: psixosemioticheskiy podxod» nomli 19.00.07 – pedagogik psixologiya ixtisosligidagi psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajini olish uchun tayyorlagan disserattsiyasining mazmunidan ko’rishimiz mumkin. Ilmiy izlanishardagi tajriba-sinov ishlarining tahlili shuni

ko'rsatganki, insho bolalarning kreativ faoliyatining mahsuli sifatida tashxis qilish belgilangan. Bunda:

A). O'quvchining shaxsiy ma'nolarining ko'satkichlari sifatida:

- ma'no va mazmun,
- vaqt,
- leksik boylik,
- javobgarlik,
- ob'ektotsentrizm, - sub'ektotsentrizm, - tema.

B). O'quvchining signifikatsion ko'nikmalarining ko'satkichlari sifatida:

- inshoning ko'lami,
- obrazlilik,
- kompozitsiya,
- bir butunlilik,

11. Ta'lim olish kengligi. Ta'lim olish kengligining bazasi sifatida madaniyat hisoblanadi. Uni esa shaxs modellashtiradi. Bazali madaniyatni ta'lim olish kengligining kreativlilikginig rivojlanish samaradorligi belgilaydi.

12. Ta'lim olish kengligida kreativlilikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi.

13. Kreativlikning shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlari bilan bog'liq jixatlari tahlil etilgan.

14. Kreativlik mazmunining muammolarini yechib berishga qaratilgan kontseptual' psixosemiotik yo'nalish ochib berilgan.

15. Shaxsning kriativligini psixolog olimlar o'quvchilarning insho yozishlari jarayonida tahlil etishga harakat qilishgan. Bunday qo'yidagi ishlar amalga oshirilgan.

Psixologiya fanida kreativlik aktning tuzilishi ishlab chiqilgan va bunda kreativlikni tashkil etuvchi elementlar: transsendentsiya va signifikatsiya sifatida tahlil etilgan.

Trans tushunchasi ikkita ma'noda qo'llaniladi:

1) Tibbiy tushuncha yo'li, ongning mavxumlanishi, ongsizlik, o'zini yo'qotish.

- 2) Oraliq. Biron bir predmet yoki hodisalarning oralig’idagi bog’lanish. Shunday ekan, kreativlik akt qo’yidagilar bilan tavsiflanishi belgilangan:
- erkinlik va cheklanganlikning protsessual’ ambivalentliligi;
  - madaniy jihatdan cheksizlik va cheklanganlikning transtsendental’ligi;
  - real ob’ektlilik;
  - belgilar sistemasining kontinualli ma’nosi va diskretligi.

Kreativlik aktning ma’naviy-axloqiy yo’naltirilganligi masalasi uning strukturasiga nisbatan apellyatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Transtsendentsiya ma’naviy-axloqiylikga nisbatan taqqoslab bo’lmaydi. Semiozis (sistemalarning o’zaro bog’liqligi) jarayoni – matn bilan dialog shaxsiy ma’nolarning sistemasi shakllanishi amalga oshiriladi. Faolyatining maxsuli olinadi va kreativlikning rivojlanishi amalga oshirilishi ko’satilgan.

Kreativlikning alohida turi bu *ijtimoiy kreativlikdir*. O’zbekistonda bu masalada tadqiqotlar kam amalga oshirilgan. Shunday bo’lsa-da, mamlakatimizda ijtimoiy psixologiya, kommunikatsiyalar bilan E. G’oziyev, G. Shoumarov, V. Karimova, B. Umarov shug’ullanganlar. Ijodiy tafakkur, intellektual saloxiyatni tadqiq etishga B. Qodirov, R. Sunnatova, M. Usmanova, R.A. Mavlanova va boshqalar e’tibor qaratishgan. Bo’lg’usi psixologlarning kasbiy tayyorgarligi masalasida ijtimoiy kreativlikni o’rganish va uni rivojlantirishga ahamiyat berilmagan.

Rossiyalik va g’arb olimlari tadqiqotlarida ijtimoiy kreativlik quyidagi masalalar doirasida ko’rib chiqilgan.

T.Yu. Osipova ijtimoiy munosabtlardagi kreativlik, ijodkorlikka qobiliyatni «kommunikativ kreativlik» atamasi bilan ifoda etadi.

S.Yu. Kann muloqot sohasidagi kreativlikni o’rgangan. “Lingvistik kreativlik”ni G.A. Xalyushova, “ijtimoiy intellekt”ni M.I. Bobneva, Yu.N. Yemelyanov, «kommunikativ kompetentlik»ni N.A. Aminov, L.A.Petrovskaya, «sotsial kompetentlik»ni A.A. Bodalev, O.K. Tixomirovlar o’rganganlar.

G’arb psixologiyasida aksariyat ilmiy ishlar ijtimoiy intellektni (D.J. Gilford, R. Sternberg), kam miqdorda kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy iqtidorni o’rganishga qaratilgan (S. Greys, R. Tomassoni).

V. Kala ilk bor “muloqotdagi kreativlik” atamasini qo’llagan va uni muloqotga ijodiy yondoshuv, unga kirishganlik, o’z xulqini modifikatsiya qila olish bilimi va qobiliyatiga ega bo’lish, mavjud vaziyatni o’zgartirishga tayoyyorgarlikni nazarda tutgan.

Rossiyalik olim A. Bodalyov ijtimoiy xayol, intuitsiya, ijodni ko’rib chiqqan. Uning fikriga ko’ra ijtimoiy xayol “o’zini boshqa odam o’rniga qo’ya olish, suhbatdosh fikri, xissiyoti, xulqini muloqot maqsadi o’zgargan yoki qo’shimcha qatnashchilar paydo bo’lganda tasavvur qila olish” bilimi, malaka va ko’nikmasida namoyon bo’ladi.

L.A. Petrovskaya shaxslararo muloqotda produktiv va reproduktiv komponentlarni ajratgan. Shaxsni ijodiy, produktiv potentsiali muloqot jarayonida muammoli vaziyat vujudga kelgan vaqtida namoyon bo’ladi. T.Yu. Osinova kommunikativ kreativlikni ijodkorlikni boshqa tomonlari bilan murakkab aloqalari mavjudligini isbotlagan. Uning fikriga ko’ra, kommunikativ jarayonda umumiy ijodiy qobiliyat “asta sekin va muvofiq ravishda samarasi pasaygan tajribani o’zgartirish imkoniyatini keltirib chiqaradi va eski tajriba bilan ulaydi; yangi maqsad, original vositalar va usullar o’zaro aloqasini (yangi tajribani), to’siq, stereotip, ustanovka, qoida, odatlardan “tashqariga chiqish”ni vujudga keltiradi”.

Adabiyotlarni o’rganish shuni ko’rsatmoqdaki, “odam - odam” va “odam - texnika” kasblarda kreativlikni yuqori darajada namoyon qilishda korrelyatsiya mavjud (K. Rodjers, A. Maslou, Ye. Roya, O.Yu. Shcherbakova, A.M. Matyushkin, N.Yu. Xryashcheva). Agar shaxsda faqat bitta sohada ijodkorlik ustun kelayotgan bo’lsa, u boshqa sohalardagi ijodkorliklar namoyon bo’lishiga to’sqinlik qiladi. Dj. Frimen, F. Barron, G. Ayzenk, N.V. Xazratova, V.N. Drujinin, Dj. Gidford, V.N. Kozlenkolar tadqiqotlarida shular aniqlanganki, iqtidorli shaxslar alohida emotsional sezgirlikka egadirlar. Yuqori darajadagi ijodkorlik psixologik barerlarni yaratayotib, ijtimoiy munosabatlardagi qiyinchiliklarga olib keladi.

S.Yu. Kann fikriga ko’ra, muloqotdagi kreativlik va tafakkurdagi kreativlik o’rtasida o’zaro aloqa va o’zaro bog’liqlik mavjud. Ikkala jihat birlashib shaxsni

izlash-takomillashtirish faoliyati, shaxs va atrof-olamning rivojlanishiga bo’lgan extiyojida namoyon bo’ladi.

Ijtimoiy kreativlikning psixologik strukturasi A.A. Popel tomonidan ishlab chiqilgan. U o’z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: o’zini aktuallashtirishga bo’lgan umumiy qobiliyatni, ijtimoiy motivatsiyani, kommunikativ sezgirlikni, ijtimoiy xayolni. Bizningcha, A.A. Popel ijtimoiy kreativlikning psixologik strukturasi bugungi kunda puxta ishlangandir.

Shu bilan bir qatorda psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o’rganuvchi alohida yo’nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo’nalishi vujudga kelgan.

Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity – inglizcha ijodiy)likni o’rganishdan iborat. Ijodkorlikka rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida (N.V. Kipiaki, A.M. Matyushkin, Y.A. Ponomarev, I.N. Semenov va boshqalar) qaraladi va uning o’rganilishi M.S. Bernshteyn, V.S. Bibler, V.N. Shkin, O.K. Tixomirov, E.G. Yudin va boshqalar nomi bilan bog’liq.

Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo’nalishi ustida g’arb olimlari: J. Gilford, S. Liding, V. Smit, D. Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan.

Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R. Xameni yozadi: «Kreativlik o’zida yangicha yo’sinda amalga oshirilgan o’zlashtirish to’lqinini (Makkelif), yangicha aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodjers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e’tirozlariga sabab bo’luvchi faoliyatidir».

Ko’pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o’ziga xosligi va xususiyatlariga e’tibor qaratadilar. J. Gilfordning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta’sir etuvchi omillar yig’indisi sifatida namoyon bo’ladi.

E. Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo’lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshiidiagi indentifikasiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi. (E. Torrens, 1996-y.)

Ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-boshqaruv darajasida – ijodkorlik determinantlari borasida jamoa ijodkorligini boshqarishda tashkilotchilik muammosi, jamoaning funktsional-rolli differentsiyasi yo’nalishi bo’yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Kreativlik ijodiy tafakkurning yangi mahsuli yoki natijasi ekanligi yuzasidan bahslar hali ham ayrim olimlar orasida davom etmoqda.

Boshqa izlanishlarda ijodkorlikning yangilik yaratishdagi yetakchiligi ta’kidlanadi.

V. Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo’lgan ob’ektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uyg’unligi».

Ko’rinib turganidek, kreativlik masalasi ilm-fanda asosan psixologik tushuncha (kategoriya) sifatida tahlil etilgan hamda uning bevosita inson psixikasi bilan bog’liq ekanligi e’tirof etilgan. Agarda til va nutq inson psixikasining mahsuli sifatida namoyon bo’ladigan bo’lsa, uning shakllanishi va rivojlanishi pedagogik muammo sifatida ham tahlil etishni taqozo etadi.

Kreativlikni o’rganish asosan ikki yo’nalishda olib boriladi:

1-yo’nalish. Kreativlikni intellekt bilan bog’liqligi masalalarini va kreativlik bilan bog’liq ta’limiy jarayonlarni belgilashni o’rganadi.

2-yo’nalish. Shaxs va uning psixologik o’ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi, shaxsga va uning motivatsion chizgilariga urg’u berilishi bilan tasniflanadi.

Intellektual faktorlarni ta’limiy yo’nalishlarda qo’llanilishida, kreativlikni o’rganish, baholashda 1950-yillarda J. Gilford va uning izdoshlari 16 ta gipotetik intellektual qobiliyatni ajratib ko’rsatadilar.

Ular orasida:

- fikrning turliligi (ma’lum vaqt oralig’idagi g’oyalarning miqdori),
- fikrning (bir g’oyadan ikkinchisiga ko’cha olishi) originalligi (o’ziga xoslik),
- umume’tirof etilgan qarashlardan farq qiluvchi g’oyani yaratish qobiliyati),
- qiziquvchanlik (o’zini o’rab turgan olamdagи muammolarga ta’sirchanlik),
- gipoteza qilish qobiliyati (reaktsiyaning stimuldan mantiqiy mustaqilligi),

- fantastikali (stimul va reaktsiya orasidagi mantiqiy bog'liqlikning borliq hayotdan butunlay uzilganligi).

Shu bilan bir qatorda ilmiy adabiyotlarni o'rganar va tahlil etar ekanmiz, bir qatorda pedagog olimlar tomonidan kreativlikning vujudga kelish mexanizmiga doir muayyan kategoriyalarni tasviya etganligining guvohi bo'lamiz. Bular:

1. O'qituvchining o'zini o'zi boshqarish mexanizmi:

- pedagogik faoliyatiga ijodiy yondishishga va yangiliklardan baxabar bo'lib borishga bo'lgan ehtiyojlar,
- o'zining sohasidagi yangiliklarni bilishga intilish,
- o'z mavjesini ko'rsatish,
- o'z-o'zini tarbiyalashi,
- mustaqil tarzda ta'lim olishi,
- o'z-o'zini doimiy ravishda rivojlantirib borishi

2. Yo'nalishlar:

- qiziqish,
- ijtimoiy yo'nalghanlik,
- qadriatlarni bilish,
- ishonchlilik,
- axloqiy etik moyilligi, - dunyoqarash.

3. «Men» kontseptsiyasi:

- men yoqimliman,
- men kerakman,
- men qodirman,
- men ijodkorian,
- men boshqaraman,
- men bilaman,
- men o'zlashtiraman

Yuqoridagilarni umumlashtiradigan bo'lsak umumiyl o'rta ta'lim mакtabalaridagi har bir pedagog qo'yidagi uchta asosiy yo'nalishlarda faoliyat olib borishlari maqsadga muvofiq bo'lib, bunday faoliyat yo'nalishlari o'qituvchini izlanshiga va ijod qilishga undaydi.

Kreativlik shaxsning yuzaga keluvchi muammolarni o'ziga xos, yangi usullarda hal eta olishi bilan bog'liq ijodiy iqtidor darajasi bo'lib, u quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- ✓ mustaqil qaror qabul qilish;
- ✓ o'z imkoniyatlariga ishonch;
- ✓ faol izlanuvchanlik;
- ✓ fikrlash tezligi;
- ✓ fikrlash moslashuvchanligi;
- ✓ g'oyaning o'ziga xosligi;
- ✓ g'oyaning mukammalligi;
- ✓ g'oyaning ijobiy yo'naltirilganligi;
- ✓ axborotlarni qayta ishslash va maqsadli qo'llay olish;
- ✓ tasavvur kengligi;
- ✓ bir-biridan uzoq fikrlarni o'zaro bog'lay olish;
- ✓ g'oya salmog'ini baholay olish;
- ✓ echimning nafis, bejirim va oddiyligi;
- ✓ ko'plab g'oyalarni yuzaga keltira olish;
- ✓ g'oyaning asosliligi.

### **1.3 §. Boshlang'ich ta'limga differentsial yondoshuvning nazariy asoslari**

Ta'limga *differentsiatsiya* (fr. diffe'rentiofion - farq, har hillik, ya`ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish) singari pedagogika sohasida so'nggi yillarda kirib kelgan yangi va yangi tushunchalarning keng qo'llanilayotganligining guvohi bo'ldik. Bu esa o'z navbatida o'qituvchining o'z soxasidagi so'nggi yangiliklardan boxabar ekanligi, ularni o'z pedagogik faoliyatida qo'llashga harakat qilayotganligidan dalolatdir. Aniqlsa uning ko'pchilik xali to'liq idrok eta olmayotgan integratsiya masalalarga alohida to'xtab o'tganligi uning izlanuvchanligini bildiradi.

Bizga ma'lumki, «intergratsiya» so'zi lotincha «*integratio*»-«*tiklash*», «to'ldirish», «integer» - «butun» ma'nolarini bildiradi. Ta'limga integrativ yondoshish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligni aks ettiradi. (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik xajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Bu umumiylar qoidalarni qanday qilib mifikta ta'limga qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyoning birligi xaqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiylar qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida predmetlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni echa olishlari bilan bog'liq. Ta'limdaga integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruktsiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

O'qituvchilarning kreativlik faoliyati ham alohida o'rganishni talab etadi. E'tirof etilishicha, kreativlik ma'lum masalaning echimini topishdagi axborotlarni tez sur`atda foydalanish qobiliyatiga bog'liq.

Bu qobiliyatni kreativlik deb atadilar va uni intellektga bog'liq bo'limgan holatda - individning yangi tushunchalar yaratuvchi va shakllantiruvchi yangi

malakalari sifatida o'rgandilar. Kreativlik shaxsning ijodiy ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini boshqarish uchun mактаб rahbariyati, boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'linda davlat ta'lim standartlariga asosan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablarni aniq va ravshan bilishlari lozimdir. Boshlang'ich ta'linda davlat ta'lim standartlariga asosan 1-4 sinflarda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar har bir fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Agar ona tili o'quv predmeti bo'yicha o'quvchilar gramatik jihatdan to'g'ri yozishni, ravon fikrlab, yozma matnni tuzishni; son, ot, fe'l so'z turkumlari va boshqalarni aniqlashni bilishlari lozim bo'lsa, o'qish darslarida to'g'ri talaffuz etib o'qish va h.k., matematikadan esa sanoq texnikasini egallah, natural sonlarni o'zaro taqqoslash, matematik atamalar ma'nosini tushunish va sonli ifodalarni o'qishda ularni qo'llay olish, miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, amaliy mazmundagi masalalarni yechish, geometrik figuralarga oid tevarak-atrofdagi shakllarni tanish va topa olish kabilar talab etiladi.

Tabiat o'quv fanidan esa jonli va jonsiz tabiatni tasavvur etish va bilish; o'z bilganlarini amalda qo'llay olish, inson va jamiyat sohasi bo'yicha jismoniy kamolotga oid, musiqaga oid, tasviriy san'atga oid, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojiga oid, inson mehnati, faoliyat turlarini anglashga doir talablar qo'yilgan. Mazkur talablar bilimlarni egallab olish jarayonida bajariladi.

Amaldagi dasturlarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir muncha topshiriqlar keltirilgan, ammo ularning barchasi ham boshlang'ich sinf o'quvchisini ijodiy faoliyatga yo'naltiradi, deya olish qiyin. Quyida ayrim fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni tahlil qilamiz. Masalan, 3-4-sinflar uchun tuzilgan matematika o'quv fani dasturida o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan. Unda topqirlikka doir masalalar, mantiqiy mashqlar, geometrik shakllar yasash va ularni bir-biridan farqlash, rasmlar, modellardan, atrofdagi narsalardan eng sodda shakllarni topa olish, vaqtini idrok etish va ko'z bilan chamalashga, aqliy topqirlikka doir o'yinlar; 4-sinfda amaliy ishlar,

rivojlantiriuvchi mashqlar: matematik o'yinxona, matematik fokuslar, arifmetik musobaqalar, she'riy masalalar, hazil masalalarni qo'llashga yo'llanmalar berilganki, fanni o'qitishda o'quvchilarning qiziqishlari albatta, ularning ijodiy faoliyatlarini faollshatiradi.

1-4 sinflarda o'rganiladigan atrofimizdagi olam, ayniqsa o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligining guvohi bo'lamic. Unda o'quvchilar bilishi zarur bo'lgan tabiatdagi o'zaro bog'liqlik, ob-havoni kuzatishlariga asosan uning natijalarini aniqlash, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini qo'llash kabilar nazarda tutilgan.

Fikrimizcha, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda, ayniqsa, tasviriy san'at darslarida keltiriladigan topshiriqlarning ahamiyati katta. Mavzularga doir kompozitsiyalar(1-2-sinflarning 2-3-choraklari), dekorativ haykallar ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar(3-sinfning 3-4-choragi), xalq ertaklariga, o'yinchoqlar yasashga doir topshiriqlar(4-chorak); mevalar va gullar, hashoratlar, qushlarga qarab alohida rasmlar ishlash(2-3-choraklar), natyurmortlar chizish; rangtasvir kompoziyasi(4-sinfning 4-choragi), mavzularga jamoa bo'lib va individual ravishda rasmlar ishlash, ijodiy qobiliyat va badiiy didni yanada o'stirishga doir mashqlar bajarish, bayram tabriknomalari eskizini tayyorlash kabi topshiriqlar ustida ishslash shular jumlasidandir.

Tahlillardan ko'rinish turibdiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish dasturlar talabalarida belgilangan, ammo amaliyotda o'qituvchilar har doim ham ularni qo'llayvermaydilar. Ayniqsa mehnat ta'limida badiiy mehnat rivojlanuvchi maqsad sifatida mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy, estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxs bo'lib yetishishlariga katta e'tibor berilgan. Bu borada bilim, ko'nikma va malakalarni egallahdagi asosiy mezon sifatida milliy hunarmandchilik sohasida shakllangan ijodkorlik belgilangan. Ayniqsa, umumiylar mehnat, naqqoshlik asoslari, dizayn asoslari, umumiylar texnologiya asoslari va boshqalardan amaliy topshiriqlarda buyumlar yasash, zargarlik, gilam to'qish, kulolchilik va boshqa kasblarga doir har xil materiallardan qo'l hunarmandchiligi buyumlari va

qo'g'irchoqlar tayyorlash, qo'g'irchoqlarga kiyimlar tikish, hamda kashta gullari bilan bezash kabi o'quvchilarda ijodkorlik faoliyati rivojlana boradi.

Musiqa madaniyati bo'yicha o'quv dasturida esa musiqa ijodkorligi madaniyati ilk bor kiritilgan. Bu faoliyat bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakalarini o'stira borish uchun katta ahamiyatga ega. Bu faoliyat o'qituvchi ijrosida jo'rovozlik qilish, sinf ijrosida dirijyorlik qilish, kuy ohangiga mos harakatlarni, raqs harakatlarini topish, she'r parchasiga kuy bastalash kabi ijodkorlik maliyotlari bilan bajarish talab etiladi. Bu faoliyat sinfdagi iqtidorli o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish va badiiy rivojlantirish uchun ayniqsa muhimdir. Musiqali harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o'zin uslublaridan keng foydalanish tavsiya etilgan. Chunki ushbu faoliyatlar zamiri ko'proq o'zin xususiyatlari bilan bog'liq.

Dasturdagi har bir sinf bo'yicha musiqa ijodkorligiga doir mashg'ulotlarda ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda, ayniqsa katta imkoniyatlarga ega.

Haqiqatan ham faoliyat shaxsning dunyoni anglab olishning barcha shakllarini, aqliy faolyatini bosqichma-bosqich shakllantiradigan kategoriya sanaladi.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirishning boshlang'ich ta'limda qanday holatda amalga oshirishni o'rganish maqsadida Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 8, 12 maktablarda qator o'qituvchilarning darslarini kuzatdik. 4 sinfda Tasviriy san'at darsida "Naqsh rozetkasini chizish" mavzusi yuzasidan o'quvchilar ijodiy faoliyatga yo'naltirildilar.

Dekorativ-amaliy san'at mavzulariga doir loyihalashtirilgan topshiriqlar o'quvchilarga amaliy-bezak san'ati, xalq amaliy-bezak san'ati, liboslar bezagi, xalq ustalari ishlataladigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish ustida olib borildi. Masalan, 4-sinfning 4-choragida "Choynak eskizini ishslash" mavzusidagi darsda loyihalangan topshiriq darsning: "O'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini va estetik didlarini o'stirish, tasviriy malakalarini rivojlantirish, badiiy fikr doirasini kengaytirish" maqsadidan kelib chiqqan holda

loyihalanadi. Bunda taqdim qilinadigan topshiriqlar quyidagi xarakterga ega bo'lishi mumkin:

1. Choynak eskizini bajaring. Buning uchun quyidagilarga e'tibor bering:
  - a) Rang haqida oldingi dars mavzuida o'tilgan ma'lumotni yodga tushiring.

Ularning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
  - b) Ranglardagi eng muhim xususiyatlardan biri- undagi elementlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor bering.
  - c) Choynak chizishni doira shaklidan boshlang.
  - d) naqshlarning ikki xildagisidan foydalaning: birinchisi- naqsh bo'laklari doira radiusi yo'nalishida joylashadi va ular markazga tomon torayib boradi; ikkinchisi- naqsh elementlari aylana bo'lib joylashadilar.
2. O'zbek naqshlari o'zining serjiloligi, jimgimalarining ko'pligi, o'simliksimon elementlarining boyligi bilan boshqa xalqlarning naqshlaridan farq qiladi. Ushbu panjara namunasini tahlil qiling.
3. Tanlangan shaklga mos holda naqsh kompozitsiyasini toping.
5. Eskiz ishslashda panjara naqshlarining xususiyatlarini hisobga oling.
6. Eskizni tugallash uchun uni bo'yoqda ishlab tugallang.

Bu alfozda andozalangan topshiriqlar o'quvchilarning ijodkorligini oshirishga qaratiladi. Ba'zan o'zlashtirishlari past o'quvchilar bilan yakka tartibda ish olib borish, ularga maxsus topshiriqlarni taqdim qilish mumkin. Mazkur vazifalar o'z mazmuniga ko'ra ijodiy bo'lganligi sababli, ularni o'quvchilar uyda yoki kelasi darsda davom ettirishlari mumkin.

Tasviriy san'at ta'limida loyihalangan topshiriqlarning o'quvchilarni darsga qiziqtirish yo'llari xilma-xil. Samarali shakllardan biri muammoli vaziyatni o'zida mujassamlantirgan topshiriqlarni yaratish va ularni baholash monitoringini tashkil qilish. Muammoli vaziyatlar o'zida o'quvchining muammoni qanday anglashini ifodalaydi va uni yechish yangi bilimlarni, yangi usul va harakatlarni izlab topishni talab etadi.

Tajribaviy bosqichlarda loyihalangan darslarning va muayyan mavzularga tuzilgan topshiriqlarning monitoringini olib borish maqsadida dars yakunida

o'quvchilarga maxsus blankalar tarqatiladi va ular asosida istiqboldagi oydinlashtirilgan ta'limga maqsadlarini belgilashga imkoniyat yaratiladi.

Boshlang'ich ta'limga har bir ijodiy faoliyat uchun ma'lum baholash o'lchovi belgilanadi va ekspertlar tomonidan baholab boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilish faoliyatining bosqichlari bo'yicha rivojlanib, yoshi, hayot sharoitlari va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda yetakchi pedagogik g'oya-umumbashariy qadriyatlarning eng muhim qoidasi- bolalarda o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlovchi dastlabki e'tiqodining shakllanishi hamda o'quv faoliyatida shart-sharoitlar yaratish bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limga o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish "Odobnoma", "O'qish", "Ona tili", "Tabiat", "Musiqa", "Tasviriy san'at", "Mehnat" o'quv predmetlarida amalga oshiriladi.

## I-bob bo'yicha xulosa

Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyati xali maxsus o'rganishni talab etmoqda.

Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida uqituvchining ijodkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasiga kirib kelayotgan innovatsion yangiliklar pedagogika faniga yangi tushunchalarni ham olib kirmoqda. Shunday tushunchalarning biri «kreativlik», “differentsial yondoshuv” tushunchalaridir. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo'lган ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o'sib boruvchi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida etarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda ilmiy ijodkorlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lган amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Hozirda, rivojlanishning zamonaviy bosqichida, mazkur an`analari inson faktorining hal qiluvchi o'rnini belgilamoqda. Bu faktorning fenomenologiyasida ijodkorlik uning belgilangan asosini tashkil etadi.

Ijodkorlik inson fenomenining namoyon bo'ladigan yuksak ko'rinishi bo'lishiga qaramasdan, u eng kam o'rganilgan soha bo'lib, tabiiy qonuniyat sifatida qaraladi. Gap shundaki, ijod jarayonining tabiatidagi tasodifanlik, kutilmaganlik avvalboshdanoq uning zamonaviy ilmiy metodlarda o'rganish imkoniyatini chegaraladi. Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to'liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma`naviyatining ajralmas qismi bo'lib,

shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni echish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi, degan xulosaga keldik.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular asosan ta'limda muammoli vaziyatlar yaratish bilan bog'liqdir:

1) bu borada differentsial yondoshuv, ijodkorlik o'yinlari, o'quv to'garaklari kabilar asosida maqsadli yo'nalish, ta'lim mazmuni orqali tashkiliy metodik yondoshuv asosida o'quvchi o'z faoliyatini baholash bilan ijodiy salohiyat rivojiana borib, faoliyatga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lim standartlari, dasturlarda ta'limning faol, amaliyotdagi mazmuni faoliyatining aniq vositalariga real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor berilishi lozim;

2) boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyati ham bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarни shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini boshqarish uchun mifik rahbariyati, boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limda davlat ta'lim standartlariga asosan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablarni aniq va ravshan bilishlari lozimdir. Boshlang'ich ta'limda davlat ta'lim standartlariga asosan 1-4 sinflarda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar har bir fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanishi muhimdir.

## **II-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativligini rivojlantirishda**


### **differentsial yondoshuvni empirik tadqiq etish**

#### **2.1 § Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuri va kreativligini eksperimental tadqiq etish**

Ushbu tadqiqotda Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 6-son va Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 17-son maktablarning 4 sinf 10-12 yoshli 60 nafar o'quvchilari ishtirok etdi. Ulardan 34 tasi qiz bola, 26 tasi o'g'il bola.

1-jadval		
Umumiy ishtirokchilar soni	O'g'il bolalar	Qiz bolalar
60 nafar	26 nafar	34 nafar
100 %	43 %	57 %


Ushbu ma'lumotlar diagrammada o'z aksini topgan



Tadqiqotni birinchi bosqichida sinaluchilar tafakkurini o'rgandik. Buning uchun “Murakkab analogiyalar” testini qo'lladik. Ushbu test bo'yicha quyidagi natijalar olindi (1-jadval).

2-jadval				
Sinaluvchilar	Tafakkur rivojlanish darajasi			
	yuqori	o'rta	past	umumiy
O'g'il bolalar	5 (8 %)	17 (28 %)	4 (6 %)	42 %
Qizlar	6 (10 %)	21 (35 %)	7 (13 %)	58 %
Umumiy	11 (18 %)	38 (63 %)	11 (19 %)	100 %

“Murakkab analogiyalar” testi bo'yicha olingan natijalar diagrammada aks ettirildi.



ko'rsatmoqdaki, barcha sinaluvchilarning 18 % yuqori, 63 % - o'rtacha va 19 % - past darajadagi tafakkurni namoyon etdilar. Eng ko'p o'quvchilar o'rtacha darajadagi tafakkurga ega ekanlar. Yuqori va past darajadagi tafakkurni namoyon etganlarning soni, deyarli, teng miqdorda.

Tadqiqotda yuqori darajadagi tafakkur teng miqdorda qizlar (10 %) va o'g'il (10 %) bollarga xosligi aniqlandi. Lekin qizlar orasida o'rtacha (35 %) va past darajadagi (13 %) tafakkurga ega bo'lganlarning soni o'g'il bollarnikidan ko'ra ko'proq (28 % - o'rtacha, 6 % - past). Past darajadagi tufakkurni qizlar (13 %) (o'g'il 6 %) bollardan ko'ra ikki baravar ko'proq namoyon etganlar. Bunday xolat qizlar tafakkurini rivojlantirish masalasini pedagog va ota-onalar oldiga qo'ymoqda.

## 2.2 § Boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativligini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili

Tadqiqotni ikkinchi bosqichida sinaluchilar kreativligi o'rganildi. Buning uchun rossiyalik olma Yelena Tunik modifikatsiya qilgan Gilford va Torrenslarning kreativlikni o'rganish uchun mo'ljallangan testlar yordamida sinaluvchilarimiz tekshirildi. Ushbu test 7ta sub testdan iborat bo'lib biz ularni 1chi va 3chi subtestlaridan foydalandik.

Birinchi subtestga ko'ra, sinaluvchilar biror predmetning bir necha ishlatish yo'lini yozib berish kerak bo'ladi. Buning uchun 3 minut vaqt ajratiladi. O'quvchilar o'zini javoblarini mustaqil ravishda berilgan varaqlarga yozishgan. Javoblar quyidagi ko'rsatgichlar asosida baholangan:


1. *Tezkorlik* (tezlik bilan ishlatish turli variantlarni ko'p miqdorda keltira olish). Tezkorlik =  $n$ . Bunda  $n$  - berilgan javoblar soni. Har bir javob 1 ball.
2. *Egiluvchanlik*. Javoblar turkumi soni.
3. *Originallik*. Agar javob 30-40 kishiga 1 marotaba uchrayotgan bo'lsa unga 5 ball beramiz.

Uchinchi subtestga ko'ra sinaluvchilar berilgan bo'g'indan boshalnadijan imkon boricha ko'rroq miqdorda so'zlar keltirishlari kerak bo'ladi. Ushbu sinov uchun 4 minut vaqt ajratiladi. O'quvchilar o'zini javoblarini mustaqil ravishda berilgan varaqlarga yozishgan. Javoblar quyidagi ko'rsatgichlar asosida baholangan:

1. *Tezkorlik* (tezlik bilan ishlatish turli variantlarni ko'p miqdorda keltira olish). Tezkorlik =  $n$ . Bunda  $n$  - berilgan javoblar soni. Har bir javob 1 ball.
2. *Originallik*. Agar javob 30-40 kishiga 1 marotaba uchrayotgan bo'lsa unga 5 ball beramiz.

Kreativlikni o'rganish bo'yicha javoblar 3-jadvalda aks etgan

3-jadval. Kreativlikni o'rganish bo'yicha subtestlar natijalari (barcha sinaluvchilar kesimida)				
Sinaluvchilar	subtestlar bo'yicha javoblar			
	<i>yuqori</i>	<i>o'rta</i>	<i>past</i>	<i>jami</i>
O'g'il bolalar	-	20 (33 %)	6 ( 10 %)	26 (42 %)
Qizlar	4 (7 %)	28 (47 %)	2 ( 3 %)	34 (58 %)
Umumiy	4 (6 %)	48 ( %)	8 (13 %)	60 (100 %)



*4-jadval. Kreativligini o'rganish natijalari.*

Sinaluvchilar	subtestlar bo'yicha javoblar			
	<i>yuqori</i>	<i>o'rta</i>	<i>past</i>	<i>jami</i>
O'g'il bolalar	-	20 (77 %)	6 ( 23 %)	26 (100 %)
Qizlar	4 (12 %)	28 (82 %)	2 ( 6 %)	34 (100 %)

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, o'g'il bolalar qizlarga nisbatan yuqori darajadagi kreativlikni namoyon etmadilar. Aksariyat o'g'il bollar (ya'ni, 20 nafari, barcha o'g'il bollardan 77 foizi) o'rtacha kreativlikka egaligi aniqlandi. Barcha o'g'il bollardan 23 % past darajadagi kreativlikni namoyon etdilar.

Barcha qizbola sinaluvchilardan 12 foizi - yuqori, 82 foizi – o'rta, 6 foizi - past darajadagi kreativlikni namoyon etdilar.

O'g'il bolalar qizlarga nisbatan uch baravar ko'p miqdorda past darajadagi kreativlikni namoyon etdilar.

Aytish mumkinki, qizlarda o'g'il bollarga nisbatan kreativlik darajasi yuqori.

Bizningcha, o'g'il bolalarda bunday xolatni kuzatilishi boshlang'ich ta'limdagি ayrim muammolar bilan bog'liqdir. Masalan, boshlang'ich ta'limda ayol o'qituvchilarni ko'p bo'lganligi tufayli ular, o'quvchilardan jinsidan qat'iy nazar, asosan ayollarga xos bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirish va ularni namoyon

etishlarini talab qiladilar. O'g'il bollarga xos bo'lgan topshiriq, vazifalarni kam miqdorda berib ularni kreativligini rivojlanishiga ongsiz ravishda to'sqinlik qilayotganliklari. Shuningdek, 4-sinf qiz va o'g'il bola o'quvchilar o'rtasidagi psixologik rivojlanishga ta'sir qilayotgan psicho-fiziologik farqlar kuchayib borayotganligi ham olingan natijalarga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, ushbu yosh davrda qizlar o'g'il bollarga nisbatan tezroq psixologik yetuklikni namoyon etadilar.

Demak, kreativlikni rivojlantirish masalasida o'g'il bolalarga alohida e'tibor qaratib, ularni xususiyatlariga mos bo'lgan yondoshuvni qo'llash lozim. Lekin, o'qituvchilar ikkala jins qobiliyatini tenglashtirishga emas, balki ularni xar xilligi, sifatiga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qobiliyatni miqdor emas, sifat nuqtai nazadan yondoshish ko'zlangan maqsadga erishishga sharoit yaratadi.

## **2.3 § Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tafakkuri va kreativligini rivojlantirishda differentsial yondoshuvni o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri va kreativligidagi farqlar ularni kreativligini rivojlantirish uchun differentsial yondoshuvni qo'llashga asos soldi. Tadqiqot natijalardi differentsial yondoshuvni tadbiq etishda tafakkur rivojlanish darajasi va jinslar o'rtaqidagi farqlarni inobatga olish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Ushbu natijalardan kelib chiqib, mакtab pedagoglari bilan birga o'quvchilarining kreativligini rivojlantirish uchun eksperiment o'tkazildi.

Eksperiment doirasida 2015-2016 o'quv yili boshida sentabr oyida Qo'shtepa tumani 17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilariga fandan kelib chiqib quyidagi usullardan foydalanishni topshiriq qilib berdik.

*1-topshiriq. O'qish darslarida amalga oshiriladigan faoliyat.*

O'quvchilarni ijodiy faollikka chorlash. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlaydigan o'qituvchi eng avvalambor o'quvchilarda taqdim qilinayotgan o'quv materialiga qiziqishini uyg'otish zarur.


Asosiy mavzuni bayon etishda o'quvchilarni qiziqtirish yo'llari:

- Oddiy bo'limgan ma'lumotlarni so'zlab berish;
- Barcha o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri taaluqli bo'lganlarni gapirib berish;
- So'zlash jarayonida xolisona va aniqlashtirilgan ma'lumotlarni taqdim qilish;
- Obrazli solishtirishlardan unumli foydalanish.

*2-topshiriq. Keltiriladigan obrazlar, solishtirishlardan unumli foydalanish va ular me'yoriga amal qilish.*

*3- topshiriq. O'quv axborotini tugatish.*

O'qituvchi nutqining so'ngida qo'yidagilarga amal qiladi:



Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativliginii rivojlantirishi uchun o'qituvchilarga o'quvchilarni obrazli fikrlashga undashi; muammoni aniq ifodalashi; fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib ajratgan holda ifoda etishi; xushmuomalali va ziyrak bo'lishi, «Faraz qiling», “Tasavvur eting”, “Ijodiy parvoz eting ...” va shu kabi so'z birikmalaridan foydalanishi bo'yicha tavsiya berildi.

O'quvchi bilan nigoh orqali psixologik aloqa o'rnatish uchun ko'rish kontakti har bir o'quvchiga 3 soniya kam bo'lmasligi, har bir javob va taklifni doimo rag'batlantirish kerakligi haqida ma'lumot berildi.

Bundan tashqari, tadqiqotimizda ishtirok etayotgan o'quvchilar o'qituvchilaridan zamonaviy “Baliq skeleti”, “Qanday?”, “Kaskad”, «Piramida sxemasi», “Nima uchun?” deb nomlangan pedagogik texnologiyalardan foydalanish so'raldi. Pedtexnologiyalar haqida ma'lumot ilovalarda keltirilgan.

Eksperiment jarayonida “Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlanish” psixologik treningi uyushtirildi. Ushbu original avtorlik trening dasturi o'z ichiga boshlang'ich sinf o'quvchisining xususiyatlarini va differentsial yondoshuvni qo'llashga sharoit yaratadigan turli psixologik mashq va o'yinlarni qamrab olgan. Trening maqsadi o'quvchilarda kreativlik haqida tasavvur shakllantirish; o'quvchilar kreativligini rivojlantirish; o'quvchilar shaxsida

kreativlikka to'sqinlik qilayotgan sifatlarni baratraf etishga ko'maklashishdan iborat.

Trening dasturi kirish, asosiy (kreativlikni rivojlantirish), yakuniy qismlaridan iborat.

Treningda qo'llaniladigan mashqlar o'quvchilarni faollashtirish, motivatsiya qilish, ijobiy psixologik muxit yaratish, kreativlikni rivojlantirishga mo'jjallangan. Yakuniy qism tilak bildirish, trening haqida fikr bildirish, va uy vazifalarini berish jarayonini qamrab oladi. Aytish joizki, trening dasturining har bir qismi kreativlikni rivojlantirishga ta'sir etadi va nafaqat psixolog, balki boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tomonidan o'tkazilishi qiyinchilik o'yg'otmaydi.

## **II-bob bo'yicha xulosa**

Bugungi kundagi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan isloxatlarning eng asosiy maqsadi barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Chunki obod yurtni keyinchalik ham yashnashini ta'minlash munosib vorislarga bog'liqdir. Xozirgi boshlang'ich sinfga borayotgan o'quvchilar kelajakda o'z ijodi va faoliyati bilan qo'lga kiritilgan yutuqlarni saqlashi va ularga xissa qo'sha olishga qobil bo'lishlari kerak bo'ladi. Shunday ekan, voyaga yetayotgan yoshlarni ijodkor, kreativligi yuqori etib tarbiyalamaslik, kelajakda ko'plab yutqazishlarga olib kelishi mumkin. Bu esa ularning kreativligini rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib psixologik tadqiqotlarni o'tkazishni taqazo etadi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, malakaviy tadqiqot ishlari doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativligini o'rganish va uni rivojlantirish bo'yicha eksperimental tadqiqot olib bordik.

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich ta'limda kreativlikni rivojlantirish masalasi, dolzarb bo'lishiga qaramay, jiddiy e'tiborni talab qiladi. Masalan, o'g'il bolalar va qizlar orasida kreativlik darajasida katta farq mavjud. O'g'il bolalar qizlarga nisbatan past darajadagi kreativlikni namoyon etdilar. Aksariyat o'g'il bollar o'rtacha kreativlikka egadir. O'g'il bolalar qizlarga nisbatan uch baravar ko'p miqdorda past darajadagi kreativlikni namoyon etdilar.

Aytish mumkinki, qizlarda o'g'il bollarga nisbatan kreativlik darajasi yuqori.

Ushbu xolat boshlang'ich ta'limdagi ayrim muammolar bilan bog'liqdir. Masalan, boshlang'ich ta'limda ayol o'qituvchilarini ko'p bo'lib o'g'il bolalar kreativligini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqdalar. Demak, kreativlikni rivojlantirish masalasida o'g'il bolalarga alohida e'tibor qaratib, ularni xususiyatlariga mos bo'lган yondoshuvni qo'llashni talab etadi.

O'qituvchilar ikkala jins qobiliyatini tenglashtirishga emas, balki ularni xar xilligi, sifatiga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativligini rivojlantirish uchun o'qituvchilar ularni obrazli fikrlashga undashi; muammoni aniq ifodalashi; fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib ajratgan holda ifoda etishi; xushmuomalali va ziyrak bo'lishi, «Faraz qiling», “Tasavvur eting”,

“Ijodiy parvoz eting ...” va shu kabi so’z birikmalaridan foydalanishi kerak bo’ladi. Shuningdek, o’qituvchi o’quvchiga o’z psixologik ta’sirini nigoh orqali o’tkazishi, har bir javob va taklif uchun rag’batlantirishi kerak.

Kreativlikni rivojlantirish uchun o’qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, ijodiy tafakkur, kreativlikni rivojlantirish usullaridan psixologik trening eng samarali usuldir.

Trening dasturi o’z ichiga boshlang’ich sinf o’quvchisining xususiyatlarini va differentsial yondoshuvni qo’llaga sharoit yaratishga imkon beradigan turli psixologik mashq va o’yinlarni qamrab olishi kerak. Treningda qo’llaniladigan mashqlar o’quvchilarni faollashtirish, motivatsiya qilish, ijobiy psixologik muxit yaratish, kreativlikni rivojlantirishga mo’jjallangan bo’lishi kerak.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, boshlang’ich sinf o’quvchilari kreativligi va tafakkur xususiyatlari o’rtasida o’zaro aloqalar mavjud; boshlang’ich sinf o’quvchilarga nisbatan differentsial yondoshuvni tadbiq qilish ularni kreativligini rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi; qizlar va o’g’il bolalar kreativligi o’rtasida sifat va miqdor farqlar mavjud.

Kreativlikni o’rganish va rivojlantirish usullarini bugungi kundagi tezlik bilan sodir bo’layotgan o’zgarishlarni inobatga olgan xolda yaratish maqsadga muvofiqdir. Kreativlikni rivojlantirish samaradorligini pedagogik jarayonda differentsial yondoshuvni qo’llash orqali oshirish mumkin.

## Xulosa

Yoshlar – ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi va tayanchi dir. Mamlakatimizning kuch-qudrati iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillar bilan bir qatorda, kadrlarning salohiyatiga, ularning murakkab muammolarni hal qilish qobiyaloyatiga ko’p jihatdan bog’liq. “XXI asr - intellektual avlod asri”, deya ta’kidlanayotgani bejiz emas, chunki aynan yoshlarning aqliy salohiyati, o’tkir ilmiy tafakkuri, ma’naviyati, dunyoqarashining mazmuni, shuningdek, faol fuqaro sifatida Vatan, el-yurt, jamiyat taraqqiyotida o’z mas’uliyatini qay darajada anglashi O’zbekistonning ertangi kunini belgilovchi asosiy omillardan biri bo’lib qolmoqda. Shu bois, Respublikamizda o’z hayotiy pozitsiyasiga ega bo’lgan, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, iste’dodli yoshlarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilgan.

Ushbu masalada boshlang’ich sinf o’quvchilar kreativligini o’rganish alohida ahamiyatga ega bo’lganligi boiz mazkur tadqiqotni amalga oshirdik.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, boshlang’ich sinf o’quvchilar kreativligi va tafakkur xususiyatlari o’rtasida o’zaro aloqalar mavjud. Qizlar va o’g’il bolalar kreativligi o’rtasida sifat va miqdor farqlar aniqlandi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarga nisbatan differentsial yondoshuvni tadbiq qilish ularni kreativligini rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Demak, voyaga yetayotgan avlodni barkamol, kelajakda O’zbekistonni mustaqilligini mustahkamlash uchun ularni kreativligini rivojlanish ko’plab amalga oshirilayotgan islohotlarni natijalilagini ta’minlashning garovi. Bunda differentsial yondoshuvni tadbiq qilish samarali pedagogik faoliyat olib borishga imkon yaratadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarga nisbatan differentsial yondoshuvni tadbiq qilish ularni kreativligini rivojlanishni ta’minlaydi.

## Tavsiyalar

Pedagog va psixolog ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda quyidagi shaxs xususiyatlarini shakllantirish lozim:

- ✓ tashabbuskorlik (o'quvchi o'zini turli faoliyatlarda namoyon qila olishi, yangiliklarga intilishi va o'z g'oyalari bilan o'rtoqlashishi);
- ✓ mustaqillik (erkin fikrlash, o'z xatti-harakatlariga o'zi javobgar bo'lishi, bilim olishga, kasb egallahshda erkin tanlov);
- ✓ mas'uliyatlilik (bilim olishda, kasb egallahshda topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish orqali o'z-o'zini tarbiyalab boradi);
- ✓ qat'iylik (maqsad sari intilishni, tanlagan kasbida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga va qunt bilan o'rganishga o'rgatadi);
- ✓ biror bir maqsadga erishish motivi (o'quvchida optimistik ruhni, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'llarini qidirish, izlanish imkonini beradi);
- ✓ qiziquvchanlik (o'quvchini faolikka undaydi, bilim olish, kasb egallahshda faoliyat yo'nalishini tanlashga yordam beradi);
- ✓ o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni, o'z-o'ziga bo'lgan bahoni oshirish (bu sifatlar ham o'quvchining hozirgi va kelgusi hayoti, faoliyati uchun o'ta muhimdir. Agar o'quvchining o'z-o'ziga bo'lgan bahosi, ishonchi past bo'lsa, u o'zini jamiyatda keraksiz odam, qo'lidan hech ish kelmaydigan noshud odamdek his qiladi, bilim olish va kasb egallahshga bo'lgan qiziqishlari bo'lmaydi);
- ✓ tortinchoqlikni yo'qotish, muloqatchanlikni, kirishimlilikni rivojlantirish (bilim olish va kasb egallahsh sirlarini o'rganishda, yo'naltirilgan kasbi bo'yicha faoliyat yuritishda, odamlar oldida o'zini yaxshi his qilishda, jismoniy nuqsonidan uyalmaslik, atrofdagilar bilan munosabatga kirishishda o'ta muhimdir);
- ✓ sabr-toqatlilik va boshqa shaxs sifatlarini tarbiyalash ham maqsadga muvofiq hisoblanadi (bilim olishdagi va kasb-hunarni egallahshdagi uchraydigan qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishda va tanlayotgan kasbining sir-asrorini oxirigacha o'rganishiga yordam beradi);
- ✓ o'quvchi o'rganishi kerak bo'lgan ishlarni uni o'rniga bajarmang, siz faqat o'qishda muvaffaqiyatga erishishni ta'minlang;

- ✓ mustaqil izlanishlarni qo'llab-quvvatlang, faollashtiring va bajarilgan ish uchun o'quvchida xursandchilik xissini o'yg'oting;
- ✓ o'quvchini o'rniga xech narsani xal etmang, faqat puxta o'ylangan qarorlarni qabul qilishga undang va ularni albatta amalga oshirishga talab qiling;
- ✓ o'quvchilarda o'zini kuzatish odatini tarbiyalang, shunda o'quvchi o'z xulqidagi kamchliklarini bartaraf etishga odatlanadi (xayajonlanish, ishonchsizlik, qa'tiyatsizlik va x.k.);
- ✓ esda tuting iroda va kuchli xarakter xislatlari faqat faoliyatda shakllanadi, kundalik vazifalarni bajarilishida mustahkamlanadi;
- ✓ esda tuting, o'qituvchi o'z xulq-atvori bilan namuna bo'la oladi, ya'ni o'quvchilardan talab qilinayotganlarni o'qituvchi o'zi ham bajarishi kerak, o'zini irodasi kuchli bo'lishi lozim;
- ✓ maqsad va vaziyatni aniqmasligi o'quvchilardagi jamlanganlik va xarakatchanligini sustlashtiradi. O'quvchi va o'qituvchini maqsadlari bir-biriga tushunarli bo'lishi lozim. O'quv faoliyatidagi qiyin vazifalarni o'zingiz maslaxatlashmasdan belgilamang. Murakkab o'quv vazifalarni asta sekinlik bilan, bosqichma bosqich o'quvchidagi o'zgarishlarni inobatga olgan xolda belgilang;
- ✓ o'quv mashg'ulotlarni olib borishda turli shakl, usul va vositalardan foydalaning. Bir xillik, qaytarilish zeriktirib qo'yadi va o'quv jarayonini samaradorligini susaytiradi, o'quvchilarni xotirasini rivojlantiradi va o'qishga qiziqishi ortishi bilan o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish kuch xosil qilishga sharoit yaratadi;
- ✓ o'quvchilarga berilayotgan vazifalar bajarilishi mumkin bo'lishi kerak. Qatta qiyinchiliklar o'ziga ishonchni yo'qotishga, kayfiyatni salbiy tomonga o'zgarishiga olib keladi;
- ✓ o'quvchilar orasida sog'lom raqobat muxitini yarating. Buning uschun musobaqalar uyushtiring. Raqobat muxiti stenik emotsiyalarni vujudga keltiradi va o'quvchilarni energatik xolatini oshiradi;
- ✓ o'quvchilar tomonidan ma'suliyat va majburiyatlarni anglashi uchun sharoit yarating;

✓ o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalang. Talablaringiz o'quvchiga tushunarli bo'lishi muximdir. Shuningdek intizomli xulq-atvorni ijobiy qo'llab-quvvatlash orqali mustaxkamlash lozim;

✓ -o'zingiz sabr-toqatli, sezgir, pedagogik donishmand bo'ling. Yumshoqlik bilan talabchanlikni namoyon qiling. O'quvchini o'ylantirishga xarakat qiling;

✓ o'quvchi xarakteri va irodasini rivojlantirishda jamoani rolini be e'tibor qoldirmang. Maqsadga intilgan, mexnatsevar o'quv jamoasi o'smirga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va unda shaxsiy va jamoaviy extiyojlarni solishtirish xususiyatini rivojlantiradi. O'quvchi kollektivga taqlidi orqali o'zidagi isalbiy xususiyatlarni osonroq bartaraf etadi.

### Ota-onalarga tavsiyalar

- Farzandni xayotiga, kundalik vazifalariga qiziqish bildiring va yordam bering.
- Farzandingizni tinglang, tushuning va mexribonlik qiling. Empatiyani namoyon qiling. Emotsional befarqlik bolada xam befarqlik, egoizmni rivojlantiradi.
- Bolani yaxshi ko'ring va ijobiy emotsional xislatlarni namoyon etishga odatlaning chunki farzandingiz sizga doim taqlid qiladi.
- Farzandingizni qo'llab-quvvatlang va unda mustaqil bo'lishga xarakatini oshirishga yordam bering;
- Bir yoqlama bo'lib, faqat o'z fikringizda turib olish xususiyatini o'zingizda yenging va iroda kuchini qaysarlikda emas vaziyatni tushunib unga mos ravishda javob berishda namoyon eting;
- Maktab bilan doimo aloqada bo'ling va farzandingizni psixologik xususiyati haqida o'qituvchilarni bergan baxosi orqali fikr yuriting. Salbiy xislatlar namoyon bo'layotganligi haqida ma'lumotga ega bo'lsangiz o'z boshimchalik qilmangda, pedagog, psixolog bilan maslaxat qilib farzandingizga yordam bering. Esda tuting: farzandingiz – oilaviy munosabatlar ko'zgusidir.
- O'zaro tushunishni ta'minlashga intiling. Ko'proq ishingiz xaqida gapirib bering.
- Oilaviy muammolardan bolani ozod qilmang. Farzandingizga ham ijobiy ham salbiy emotsiyalar kerakdir.

- Ko'proq ijobjiy xilatlarga urg'u bering va shu orqali salbiy sifatlarni bartaraf etishga yordam bering.
- Nima qilish kerak emasligi haqida emas, nima qilish kerakligi haqida gapiring.
- Farzandingizni tanlagan yo'lini qabul qiling. Agar u salbiy yo'l bo'lsa o'zaro xurmat, xamkorlik muxitida muxokama qilib to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsating.
- Oilaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qiling va qo'lidan keladigan ishga ma'suliyatni bo'yning olishni ta'minlang.
- Esda tuting, tarbiya vazifasi farzandimizni kattalarsiz to'g'ri xayot kechirishga o'rgatishdan iboratdir.
- Jazolash, cheklash usullaridan extiyotkorlik bilan kamdan-kam foydalaning. Har bir bolaga individual yondoshuv kerakligini, "oson bolalar" yo'qligini esda tuting.
- Qaysi fazilatni tarbiyalashga intilishingizdan qa'tiy nazar, shuni unutmangki, bolani tarbiyalamang, o'zingizni tarbiyalang, u bari bir sizga o'xshab qoladi.

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami.1-19 jiddlar. - Toshkent, "O'zbekiston", 1996-2011.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T., 2010. – B.6.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011. – 440 b.
4. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild. Toshkent: «O'zbekiston», 1996. - 369 b. 37-bet.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -176 b. 55, 113 b.
6. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi (UzR Prezidentining 2014 yil 19 fevraldag'i PQ-2133-son qarori)
7. KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y. [http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact\\_id=196944](http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=196944)
8. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI TA'LIM TO'G'RISIDA. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y. [http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact\\_id=16188](http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=16188)
9. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. – 1992. – №2. – 80 - m.; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1998. – №5– 6. – 102-m.; – 2004. – №5. – 90-m.; – 2005. – №1. – 18-m.; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi. – 2008. – №12. – 640-m.
10. Davletshin M., To'ychieva S. Umumiy psixologiya T.:TDPU, 2002.–202 b.
11. Hamdamova M. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari (uslubiy tavsiyalar). Toshkent, 2007. <http://www.istedod.uz>
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. - 480 b.

13. Jalilova S.X., Haydarov F.I. Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. -T.: TDPU. 2010.-127 b.
14. Karimov B. R., Qodirova Z. R., Sharipov A. D. Yoshlarda milliy o'zlikni, zamonaviy dunyoqarashni rivojlantirish jarayonida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari: Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – T., 2012. – B.9.
15. Karimova V. Ota-onal maktabi — baxt kaliti.- T., 2002.
16. Karimova V. Targ'ibotning psixologik uslublari.-T.: Ma'naviyat, 2000 - 16 b.
17. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: UzMU, 1999. - 96 b.
18. Karimova V. M. Psixologiya. O'quv qo'llanma.- T.: A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2002.
19. Karimova V. M., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni.- T., 2002
20. Karimova V.M. Psixologiya. T. Universitet. 2002.
21. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. -T. Yangi asr avlodi, 2006. -204b.
22. Nishanova Z., Askarova N.A. va boshq. O'quvchilarda past o'zlashtirish diagnostikasi va psixokorrektsiyasi. Toshkent, 2014.
23. Sunnatova R.I., Karimova V.M., Tadjibaeva R.N. Mustakil fikrlash. Toshkent: Shark.-2000. - 112 b.
24. Usmonova E.Z. Ukvychilarining mustakil tafakkurni kanday shakllantirish mumkin? - «Pedagogika va yosh psixologiya» ilmiy-ommabop seriya, 2000, №1.
25. Qodirov B.R. Akliy iste'dod XXI asrning eng kimmatlari mulkidir. Tashkent, TDPU, 1999.
26. G'oziyev E., Jabborov A. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. Toshkent: O'zMU, 2003
27. G'oziyev E.G. O'quvchilarda umumlashtirish usullarini shakllantirish va ularning akliy taraqqiyoti. T, 2001.
28. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. T, 2010.
29. G'oziyev E.G'. Intellekt psixologiyasi. T., 1996.
30. G'oziyev E.G'. O'quvchilariing o'quv faoliyatini boshqarish. Toshkent, 2002.
31. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. 2002.
32. G'oziyev E.G'. Xotira psixologiyasi., T., 1994.

33. G'oziyev E.G'. Mamatqulov R., Abdurashidov. Komil insonni tarbiyalash muammolari. T, 2001.
34. G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T.: 2002.
35. XXI asr psixologiyasi: nazariya, amaliyot, istiqbollar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari, 2013 yil 22 may. Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2013
36. Abramova M. Prakticheskaya psixologiya M.: Myisl. 2003. - 480s.
37. Badmaev B.TS. Psixologiya v rabote uchitelya: V 2 kn. M., 2000.
38. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya: Xrestomatiya / Sost. I.V. Dubrovina i dr. M., 1999.
39. Volkov B.S., Volkova N.V. Detskaya psixologiya: Logicheskie sxemy. – M., 2002. 50 c.
40. Vygotskiy D. S. Pedagogicheskaya psixologiya / Pod red. V.V. Davydova. M., 1991.
41. Vygotskiy L. S. Sobr. soch.: V 6 t. M., 1983. T. 3, 137 c.
42. Gaziev E.G. Upravlenie uchebnoy deyatelnostyu shkolnikov. Tashkent, 2001.
43. Ivannikov V. A. Psixologicheskie mexanizmi volevoy regulyatsii. M., 1991.
44. Ilin Ye. Psixologiya individualnykh razlichiy. M. 2003 g.
45. Krayg G. Psixologiya razvitiya. M. 2000
46. Obuxova L.F. Detskaya (vozrastnaya) psixologiya. Uchebnik. - M., Rossiyskoe pedagogicheskoe agentstvo. 1996, - 140 s.
47. Rybalko E.F. Vozrastnaya i differentialnaya psixologiya. M. 2001.
48. Xrestomatiya po psixologii i tipologii xarakterov. Redaktor-sostavitel – D.Ya.Raygorodskiy. Samara: BAXRAX, 1997 v detskix vozrastax. Izbr. Psixolog. tr. / Pod red. D.I. Feldshteyna. M., 1997.
49. Elokonin D.B. Dekaya psixologiya. M. 2000
50. Erikson E. Detstvo i obychestvo. SPb., 1996.

## Ilovalar

**Test: «Muhim belgilarni ajrating»**

Har bir qatorda bitta so'z qovus tashqarisida va beshta so'z qovus ichida berilgan. Qovus ichidagi barcha so'zlar tashqaridagiga ma'lum bir jihatdan bog'langan. Siz ahamiyatli bog'liqlikka ega bo'lgan ikkitasini ajrating va uning ostiga chizing.

Bog' (o'simlik, bog'bon, kuchuk, devor, tuproq);

Daryo (qirg'ok, baliq, baliqchilar, suv, qayiq);

Shahar (avtomobil, bino, omma, ko'cha, velosiped);

Omborxona (xashak, o'tlar, tom, mol, devor);

Kub (burchaklar, chizma, tomonlar, tosh, daraxt);

Bo'lish (sinf, bo'luvchi, qalam, bo'linma, kog'oz);

Doira (diametr, olmos, iltimos, aylana, muhr);

O'qish (ko'zlar, kitob, rasm, muhr, so'z);

Gazeta (xaqiqat, ilova, telegramma, qog'oz, muharrir);

O'yin (harita, o'yinchilar, jarima, jazo, qoida);

Urush (aeroplan, pushkalar, jang, qurol, soldatlar).

**“Muhim belgilarni ajratsh» tetti bo'yicha olingan natijalar**

Nº	F.I.	ball
1	Yunusaliyeva Xonazimxon	12,9
2	Yoqubova Shahzodaxon	9,7
3	Xolmatova Jasmina	8,5
4	A'zamov Biloliddin	8,4
5	To'lonboyev O'tkirbek	8,1
6	Abdurahmonova Sarvinoz	7,8
7	Boqiyeva Diyoraxon	7,7
8	Boqiyev Jasurbek	7,4
9	Ibrohimova Adolatxon	7,4
10	Sobirova Nodiraxon	7,4
11	Yo'lidashev Olloberdi	7,4
12	Ismoiljonova Irodaxon	7,1
13	Abduhakimov Muhammaddiyor	6,8
14	Nuriddinova Mubinaxon	6,8
15	Odilbekova Maknunaxon	6,8
16	Qosimov Shamsiddin	6,8
17	Anvarxonova Zahroxon	6,7
18	A'zamov Sirojiddin	6,4
19	Mamasodiqov O'ktambek	6,1
20	Ismoiljonova Ruhshona	5,8
21	Yo'doshev Xolmuhammad	5,7
22	Bannopov Qudratillo	5,4
23	Normuhammedova Ijobatxon	4,8
24	Normuhammedova Kamolatxon	4,5
25	Soxipjonova Mavlyudaxon	4,4
26	Zakirova Ibodatxon	4,1
27	Akramov Muhammadsodiq	3,4
28	Alijonov Abduvosit	3
29	Mirzaanvarova Madinaxon	2,4
30	Egamberdiyev Shukurullo	0

**Gilfordning 1-subteti bo'yicha olingan natijalar.**

№	F.I.	Ball		
		N	Or	Summa
1	Soxipjonova Mavlyudaxon	5	5	10
2	Abdurahmonova Sarvinoz	4	5	9
3	Sobirova Nodiraxon	3	5	8
4	Alijonov Abduvosit	2	5	7
5	Yunusaliyeva Xonazimxon	2	5	7
6	Xolmatova J.	6	0	6
7	Abduhakimov Muhammaddiyor	5	0	5
8	Akramov Muhammadsodiq	5	0	5
9	Boqiyev Jasurbek	4	0	4
10	Mirzaanvarova Madinaxon	4	0	4
11	Zakirova Ibodatxon	4	0	4
12	A'zamov Biloliddin	3	0	3
13	Ibrohimova Adolatxon	3	0	3
14	Ismoiljonova Irodaxon	3	0	3
15	Normuhamedova Kamolat	3	0	3
16	Nuriddinova Mubinaxon	3	0	3
17	Qosimov Shamsiddin	3	0	3
18	Yoqubova Shahzodaxon	3	0	3
19	A'zamov Sirojiddin	2	0	2
20	Bannopov Qudratillo	2	0	2
21	Boqiyeva Diyoraxon	2	0	2
22	Egamberdiyev Shukurullo	2	0	2
23	Mamasodiqov O'ktambek	2	0	2
24	Normuhamedova Ijobatxon	2	0	2
25	Odilbekova Maknunaxon	2	0	2
26	To'lonboyev O'tkirbek	2	0	2
27	Yo'doshev Xolmuhammad	2	0	2
28	Yo'ldashev Olloberdi	2	0	2
29	Anvarxonova Zahroxon	1	0	1
30	Ismoiljonova Ruhshona	1	0	1

### **Gilfordning 3-subteti bo'yicha olingan natijalar.**

<b>№</b>	<b>F.I.</b>	<b>ball</b>
1	Sobirova Nodiraxon	15
2	Soxipjonova Mavlyudaxon	16
3	Abdurahmonova Sarvinoz	9
4	Xolmatova Jasmina	10
5	Yunusaliyeva Xonazimxon	4
6	Nuriddinova Mubinaxon	13
7	Alijonov Abduvosit	12
8	Bannopov Qudratillo	13
9	Yoqubova Shahzodaxon	7
10	A'zamov Sirojiddin	11
11	To'lonboyev O'tkirbek	9
12	Ismoiljonova Ruhshona	12
13	Normuhammedova Ijobatxon	12
14	Qosimov Shamsiddin	9
15	Anvarxonova Zahroxon	11
16	Boqiyeva Diyoraxon	8
17	Yo'ldashev Olloberdi	8
18	Ismoiljonova Irodaxon	6
19	A'zamov Biloliddin	4
20	Boqiyev Jasurbek	4
21	Abduhakimov Muhammaddiyor	3
22	Odilbekova Maknunaxon	6
23	Mamasodiqov O'ktambek	6
24	Normuhammedova Kamolat	5
25	Ibrohimova Adolatxon	2
26	Yo'doshev Xolmuhammad	4
27	Mirzaanvarova Madinaxon	5
28	Zakirova Ibodatxon	3
29	Akramov Muhammadsodiq	0
30	Egamberdiyev Shukurullo	3

**Illova 5.**

1. Кўп холларда сизга муаммолар ҳал этишда “Нима қилиш керак?” ҳақида ўйлашга ҳожат бўлмайди. Муаммо асосан “Буни қандай қилиш керак?” қабилида бўлади. “Қандай?”-муаммони ҳал этишда асосий савол ҳисобланади.  
“Қандай?” иерархия диаграммаси муаммо ҳақида бутунлигича умумий тасаввурга эга бўлишга имкон берадиган саволлар мантиқий занжири қўринишида бўлади. Кетма-кет равишда “Қандай?” саволини қўйиш орқали сиз фақат муаммони ҳал этишнинг барча имкониятларини тадқиқ этибгина қолмай, балки уларни амалга ошириш усулларини ҳам ўрганасиз.  
Диаграмма стратегик даражадаги савол билан иш бошлайди. Муаммони ҳал этишнинг пастки (қўйи) даражаси биринчи навбатдаги ҳаракатлар рўйхатига мос келади.
2. Ўйламай, баҳоламай ва уларни ўзаро солишиштирмай тезликда барча ғояларни ёзиш лозим бўлади.
3. Диаграмма ҳеч қачон тугалланмайди: унга янги ғояларни киритиш мумкин бўлади.
4. Агарда савол схемада бир қанча “шохлар”да қайтарилса, демак у нисбатан муҳимдир. У муаммони ҳал этишнинг муҳим қадами бўлиши мумкин.
5. Янги ҳояларни график қўринишида қайд этишни ўзингиз ҳал этинг: дараҳт ёки каскад қўринишида, юқоридан пастга ёки чапдан ўнгга. Энг муҳими эсда тутинг: нисбатан кўп

## “Baliq skeleti” sxemasi

“Балиқ скелети”  
схемаси  
-муаммонинг бутун  
доираси (майдони)ни  
ифода этиш ва унинг  
ечимини топишга  
имконият беради.  
Тизимли, ижодий,  
таҳлилий мушоҳада  
қилиш кўникмаларини  
ривожлантиради

Схемасини тузиш қоидалари билан  
танишади.  
“Суяқ” юқори қисмига муаммо  
ичидаги муаммо ёзилади, пастки  
қисмига эса-ушбу муаммо ичидаги

Мини-гуруҳларга бирлашади,  
ўз схемаларини таққослайди  
ва қўшимчалар киритади.

Натижалар тақдимоти

# **Boshlang'ich sinf o'quvchilar kreativligini rivojlanish psixologik treningi stsenariysi**

**Maqsad va vazifalari:** o'quvchilarda kreativlik haqida tassavur shakllantirish; o'quvchilar kreativligini rivojlanish; o'quvchilar shaxsida kreativlikka to'sqinlik qilayotgan sifatlarni baratraf etishga ko'aklashish.

## **Trening dasturi**

### **I. Kirish qismi**

- Psixologik muxit yaratish. "Olma" mashqi..
- Faollashtirish. Harakatli "Atom va molekulalar" o'yini.
- Gurux qoidalarini ishlab chiqish.

### **II. Asosiy qism. Kreativlikni rivojlantirish**

1. Faollashtirish. "Taqlid" mashqi.
2. Rasmlar yordamida kreativlikni rivojlantirish
3. Faollashtirish. "Barmoqni ushlab ol!" harakatli o'yini.
4. "Nima qilsa bo'ladi?" divergent tafakkurni rivojlantirish mashi.
5. "Nima bo'ladi, agar ...?" kreativlikni rivojlantirish mashqi.
6. Faollashtirish. "Orqama-orqa" harakatli o'yin
7. "Bu nimga o'xshaydi?" kreativlikni rivojlantirish mashqi.

### **III. Yakunlash**

1. Tilak bildirish mashqi
2. Trening haqida taasurotlar
3. Uy vazifasi

## **Treningni o'tkazish tartibi**

### **I. KIRISH QISMI**

#### **1. Psixologik muxit yaratish.**

"**Olma**" mashqi. Qatnashuvchilar davra bo'lib o'tiradilar. Boshlovchi "Mening ismim.... Men ...ni yaxshi ko'raman (xohlagan narsa yoki kishining ismini aytish mumkin),- deydi va olmani biron kishiga qarab otadi. Olmani ilib olgan ishtirokchi ham o'zini shunday tanishtiradi va olmani boshqa ishtirokchiga uzatadi. Keyin barcha ishtirokchilar o'zlarini tanishtirib bo'lgunlariga qadar davom yetadi. Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytish mumkin bo'lgan jumlalar:

- ✓ Men ...ni yaxshi ko'raman
- ✓ Men yoqtirgan gul ....
- ✓ Men yoqtiradigan rang (fan, xayvon, ichimlik, taom, bog'dagi kachelya, morojennoe, fasl, bolalar o'yni, ....)

#### **2. Faollashtirish. "Atom va molekulalar" xarakatli o'yini.**

Trener 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamni aytadi. So'ng tezda o'yinchilar guruxlarni shunday tuzadilarki, xar bir guruxning a'zolari soni aytilgan songa teng bo'lishi kerak.

### **3. Gurux qoidalarini ishlab chiqish.**

Tanishuvdan so'ng trener guruxda ishlash qoidalarini ishlab chiqish haqida so'z yuritadi.

#### **Qoidalar:**

1. Ishonchli muloqot.
2. "Xozir va shu yerda" (qatnashuvchilarni mana shu yerda va aynan o'sha vaqtda dolzarb bo'lgan xolat, vaziyatni tahlil qilish).
3. Personifikatsiya (o'zini nomidan murojaat etish, "Biz o'ylaymizki...", "Bizning fikrimizga ko'ri..." iboralarni o'rniga "Meni fikrimcha...", "Men ... xisoblayman" jumlalarni ishlatish).
4. Muloqotda samimiylilik (faqat xis qilganimizni aytish, boshqalarni xulqiga o'z fikrini ochiq aytish).
5. Konfidentsiallik (guruxda bo'lgan vaziyatlarni tashqariga olib chiqmaslik).
6. Shaxsni faqat kuchli sifatlariga e'tiborni qaratish.
7. Faolik (barcha o'yin va mashqlarda faollik bilan ishtirok etish).
8. Insonni shaxsiga emas xulqiga baxo berish.

## **II. ASOSIY QISM**

### **1. "Taqlid"**

Yutqizgan 4 kishi xonadan tashqariga chiqarib yuboriladi, qatnashuvchilar doira bo'lib o'tiradilar. Kirgan odamga vazifa berilgach hamma uning har bir harakatiga baravar taqlid qilishi kerakligi tushuntiriladi. So'ng birinchi odam kirgiziladi va boshlovchi:

"Siz shunday ish bajaringki hamma qoyil qolib chapak chalsin!" - deydi. O'yin har bir ishtirokchi chapak chalish kerakligini uqib olmaguncha davom yetadi. Agar tushunolmasa trener yo'naltiradi, yani "Biz nima qilyapmiz?" deb so'raydi. Bu o'yin mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, sezgirlikka, topqirlilikka o'rgatadi.

## **2. Rasmlar yordamida kreativlikni rivojlantirish**

A) Diqqat bilan berilgan rasmni tomosha qiling. Ushbu rasmni eng kamida 10ta sifat bilan ushbu rasmni tasvirlang



B) Diqqat bilan rasmni tomosha qiling. Fil portretini so'zlab bering va daftarga yozing.



C) Xayolingizda birinchi "atr gul" va ikkinchi "fil" rasmlarini birlashtiring. Qanday rasm xosil bo'lди? Javobni daftarga yozing.

**3. "Barmoqni ushlab ol!" harakatli o'yini.** Ishtirokchilar doira bo'lib o'tirishibdi. Trener: "Hozir hammamiz 1-deganimda o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini ko'taramiz 2-deganimda chap qo'limizni chap tomondagi shеригимизнинг ко'рсаткич бармог'и устига оқыамиз. 3-deganda yesa o'ng qo'l barmog'imizni olib qochib, chap qo'limiz bilan shеригимизнинг бармог'ини ushlab olamiz"- deydi. Ko'rsatkich barmoq tepaga qaratildan holda yelkadan pastroq va yon tomonda tutiladi. Qo'li ushlangan odam qandaydir savolga javob berishi yoki shart bajarishi kerak.

## **4. Devergent tafakkurni rivojlantirish mashqlari**

**"Nima qilsa bo'ladi?" mashqi.**

- Gurgurt qutisi bilan nima qilsa bo'ladi? Sizni qanday taklifilaringiz bor? (Eng kamida 10ta taklif)
- Baklashka bilan nima qilsa bo'ladi? Uni qanday maqsadlarda ishlatsa bo'ladi? (Eng kamida 10ta taklif)

Keltirilgan so'zlar yordamida hikoya yoki ertak to'qing.

So'lar: svetofot, guldon, choynak, dori.

**"Nima bo'ladi, agar ...?" mashqi.**

- "... tinimsiz yomg'ir yog'sa?"
- "... odamlar qushlar kabi uchishni o'r ganib olsa?"
- "... krandan suvni o'r niga apelsin sharbati oqsa?"

### **"Bu nimga o'xshaydi?" mashqi.**

O'quvchilar ikkita jamoaga bo'linadilar. Topshiriq: har bir jamoa bir daqqa dav\omida berilgan rasm nimaga o'xshashligini yozib berishi kerak. O'xshatmalar imkon boricha ko'p miqdorda bo'lishi kerak. Eng ko'p javob bergen jamoa g'olib bo'ladi.

### **"Orqama-orqa" mashqi.**

Ishtirokchilar xona bo'y lab harakat qiladilar. Boshlovchi tana azolaridan birining nomini aytadi, masalan, "orqa" deydi. Shunda ishtirokchilar o'zlariga juft topib, bir-biriga suyanishlari kerak. O'ziga sherik topa olmagan odam o'rtaga chiqadi va o'yinni davom yettirish uchun boshqa tana azolarining nomini aytadi (masalan, bosh,qyl, oyoq, barmoq, yelka vxk.).

## **III. YAKUNLASh**

### **1. Tilak bildirish mashqi.**

Boshlovchi o'quvchilarga murojaat etadi:

- Bugungi treningda siz nimalarni o'rgandingiz?
- Qanday xissiyotlarni sezdingiz?
- O'rtoqlaringizga nimalarni tilaysiz?
- Nima yoqdi va nima yoqmadi?" savollari.

O'quvchilar javob beradilar.

### **2. Trening haqida taasurotlar**

### **3. Uy vazifasi**

Boshlovchi psixolog o'quvchilarga uy vazifasini beradi.

### **Topshiriq № 1. She'rlarni o'zingiz to'qib davom etdiring**

A) Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir

Yopiq eshiklarni ochar birma-bir

.....

B) Keksalarni etsan azizu izzat

(Seni ham keksaygach etishar hurmat)

.....

S) O'qishda, ishda ilg'or bo'laman....

....

D) Tunov kuni maktabda

Bo'ldi qiziq xangoma

....

**Topshiriq № 2.**

**Rasda nechta multfilmni siz topdingiz? Hammasini nomini ayting.**

